

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XALILOVA DILBAR JALILOVNA

**BADIIY ADABIYOTDA JINOYAT VA JAZO MUAMMOSI: QIYOSIY-
TIPOLOGIK TADQIQ (FYODOR DOSTOYEVSKIY VA O‘ZBEK NASRI
MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtotreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)
Contents of the dissertation for a Doctor of Science degree (DSc)

Xalilova Dilbar Jalilovna

Badiiy adabiyotda jinoyat va jazo muammosi: qiyosiy-tipologik tadqiq (Fyodor Dostoyevskiy va o‘zbek nasri misolida) **3**

Халилова Дилбар Жалиловна

Проблема преступления и наказания в художественной литературе: сравнительно-типологическое исследование (На примере Фёдора Достоевского и узбекской прозы)..... **30**

Khalilova Dilbar Jalilovna

The Problem of Crime and Punishment in Fiction: a Comparative-typological Study (On the Example of Fyodor Dostoevsky and Uzbek Prose)..... **61**

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of publications **66**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XALILOVA DILBAR JALILOVNA

**BADIIY ADABIYOTDA JINOYAT VA JAZO MUAMMOSI: QIYOSIY-
TIPOLOGIK TADQIQ (FYODOR DOSTOYEVSKIY VA O‘ZBEK NASRI
MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.DSc/Fil437 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

G'aniyev Ilhom Muzaffarovich
filologiya fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Mo'minov Fayzulla Abdullayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Kiselyov Dmitriy Anatolyevich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Murodov G'ayrat Nekovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil « 06 » yanvar soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (Q.403 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 22 » dekabr kuni tarqatildi.

(2023-yil « 22 » dekabr dagi 23-37 raqamli reyestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, dotsent

KIRISH (fan doktori [DSc] dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida inson va jamiyat talqini masalalari tizimi o'zida sevgi-muhabbat, oilaviy-maishiy, do'stlik-birodarlik, qahramonlik va vatanparvarlik, tabiat va ekologiya kabi bir qator g'oyaviy motivlar qatorida jinoyat va jazo muammosini ham qamrab oladi. Har qanday shaxs psixologiyasida hayotning chigal, murakkab vaziyatlarida bir necha lahzalarga bo'lsa ham jinoyatning u yoki bu, katta yoki kichik turini amalga oshirish uchun moyillik uyg'onadi. Inson psixologiyasi kundalik faoliyatning taqozolari, voqea-hodisalar epik, liro-epik dostonlar, nasriy yoki she'riy yaratmalar, sahna asarlari tarkibida mavjud bo'lgan g'oyaviy motivlar inson dunyoqarashidagi yangi usul va tamoyillar negizida poetik talqin etilishi zamonaviy adabiy jarayon qonuniyatlarini to'liq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotida bechora va beozor kishilar taqdirining, yovuz kimsalar zulmi va jinoyati tufayli fojiona yakun topgan kishilar qismati, jinoyat va jazo, favqulodda sirli-g'aroyiblik, magik, realistik yo'nalishdagi namunalari mavjudligi bilan e'tiborni tortib kelgan. Jinoyat va jazo motivining shakliy ko'rinishlari o'zbek folklori, she'riyati, nasri va dramaturgiyasi namunalarida ham doimo talqin qilingan. O'zbek adabiyotida jinoyat va jazo mavzusi bilan bog'liq masalalarning qiyosiy-tipologik tadqiqi, jinoyat va jazo motivining talqinlarini yozuvchi F.M.Dostoyevskiy ijodi bilan yondosh o'rganish, asar uslubi, asarda universal realiyalar ifodalanishi, kriminal so'zlarning xarakter yaratish, jinoyat va jazo ilmiy komponenti, badiiy-falsafiy mazmuni ifoda etishdagi vazifalari, Sharq mentaliteti va G'arb dunyoqarashidagi mushtarak hamda tafovutli jihatlar ifodasi singari masalalarga alohida diqqat qaratilmoqda.

Mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni ta'minlash yo'lida olib borilayotgan bir qator ishlar va amalga oshirilgan islohotlar yo'lida mazkur tadqiqotlar, xususan, har qanday jinoyatkorona harakatlarni o'rganish, ularni fosh etish, yangi demokratik jamiyatni barpo etish kabi keng miqyosli ishda ma'naviy asos va madad bo'lib xizmat qilishi tabiiy. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" mavzusidagi ma'ruzasida aytganidek, "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Millionlab odamlarning e'tiborida bo'lgan, madaniyat, adabiyot va san'at degan muqaddas dargohga qadam qo'ygan har bir ijodkor, hech shubhasiz, avvalo, o'z xalqining qalbiga quloq solib, uning dardiga darmon bo'lishga intiladi".¹ Shuningdek, "Bugungi murakkab zamonda odamlar pul topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk

¹ Sh.M. Mirziyoyev. "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir". O'z AS, 2017-yil 4-avgust. // <https://kknews.uz/oz/1715.html>.

adabiyot uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”²,- deb ta’kidlagan edi muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

O‘zbekiston Respublikasida Uchinchi Renessans asosi yaratilayotgan kunlarda yosh avlodni ma’nan yuksaltirishda, komil inson qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning ahamiyati va ta’sirchanligi nihoyatda katta. Ayniqsa, xorijiy tillarni nazariy va amaliy egallash, xalqlararo munosabatlarni mustahkamlash, ajdodlar merosini o‘rganish, badiiy asarlarning qiyosiy-tipologik tahlili jarayoni xususiyatlari yorituvchi tadqiqotlarni chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Jahon adabiyotida, jumladan, o‘zbek adabiyotida jinoyat va jazo motivi, ijodkorning poetik konsepsiyasini o‘rganishga oid ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Columbiya University in the city of New York (AQSh), University of Oxford (Buyuk Britaniya), University of Cambridge (AQSh), Universitet Pensilvanya (AQSh) b University of California (AQSh), University of Toronto (Kanada), Grasefild University, Unuversitat Trier (Germaniya), University of Verona (Italiya), Austral University (Argentina), Koradeniz Teknik Universitesi (KTU) (Turkiya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), Oltoy davlat universiteti (Rossiya), Chuvat davlat universiteti (Rossiya), Rossiya akademiyasining Sharqshunoslik instituti, Dog‘iston davlat pedagogika universiteti (Dog‘iston), Qozon (Privoljskiy) federal universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat Sharqshunoslik instituti (Rossiya), Boshqird davlat universiteti (Rossiya), Tombov davlat universiteti (Rossiya), Xo‘jand davlat universiteti (Tojikiston)da olib borilmoqda.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 20-maydagi “Adiblar xiyoboni”ni ochilishida so‘zlagan nutqi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunoslik va adabiy tanqid fanining salmoqli qismi bo‘lgan rus adabiyotshunosligida badiiy asarlarni eng xarakterli va chuqur ilmiy aspektlarda o‘rganish borasida muhim yutuqlarga erishilganligi bilan e‘tiborni tortadi. Masalan, buni qiziqarli va murakkab motivdan iborat jinoyat va jazo mavzusidagi asarlarni tadqiq etish harakatida ham ko‘ramiz. Dunyo adabiyotida bechora va beozor kishilar taqdirining, yovuz kimsalar zulmi va jinoyati tufayli fojiona yakun topgan kishilar qismati tasvirining ustasi sifatida tanilgan Fyodor Dostoyevskiy ijodining shu mavzudagi masalalari munosib ravishda tadqiq qilib kelinmoqda.³

Dostoyevskiy ijodi masalalari rossiyalik ilmiy xodimlarning dissertatsion tadqiqotlarida keng ravishda o‘rganilgan⁴.

O‘zbek adabiyotida, jumladan, nasriy asarlarida o‘z talqinini topgan jinoyat va jazo motivi haligacha biron tadqiqotda, hatto biron ilmiy maqolada maxsus ravishda o‘rganilmagan. Shu bilan birga, jinoyat va jazo motivining mashhur asarlardagi talqinlari shu asarlarga bag‘ishlangan ishlarda – darsliklarda, monografiyalarda, dissertatsiyalarda yo‘l-yo‘lakay tarzda o‘rganilganligini ta’kidlash kerak. Masalan, Natan Mallayevning⁵ “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida To‘maris, Shiroq afsonalaridagi bosqinchilik jinoyati va uning jazosi, A.Navoiy “Sab’ai sayyor” dostonidagi shoh Bahrom jinoyatlari va uning jazosi – o‘zi va g‘oratchi askarlarining botqoq qa’riga cho‘kib ketishi haqidagi talqinlarni eslash joiz. A.Qodiriy ijodiga bag‘ishlangan Izzat Sulton⁶, Ahmad Aliyev⁷, Ibrohim Mirzayev⁸, Sobir Mirvaliyev⁹, A.Fitrat ijodi haqidagi Ilhom G‘aniyevning¹⁰larning monografiyalarida jinoyat va jazo masalalariga ham daxl qilingan. Shuningdek,

³. Qarang: Шевцова Д.М. Функционирование библейский эпитафов в художественной структуре романов Л.Н.Толстова (“Анна Каренина”, “Воскресение”) и Ф.М. Достоевского (“Братья Карамазовы”). АКД. Нижний Новгород, 1997, -19 с.; Прокурова Н.С. Нравственно-психологические аспекты проблемы преступления и наказания в русской литературе второй половины XIX в. АДД, Москва, 2000, -60 с.; Жаров В.А. Ф.М.Достоевский и философия права 1860-х годов. Дисс., Тверь, 2003, -194 с.; Савина Н.О. Роман Ф.М.Достоевского “Бесы”: проблематика и особенности поэтики. Дисс., Москва, 2003, -219.; Дорошева Е.В. Достоевский и русский суд как основа национально-правовой этики: феноменология образов. АКД. Краснодар-2005; Федоренко С.С. Роман Ф.М.Достоевского “Преступление и наказание”: аспекты художественной онтологии. Дисс., Самара, 2006, -171 с.; Сафронова Е.Ю. Дискурс права в творчестве Ф.М. Достоевского 1846-1862 гг. АКД, Москва, 2006, -26 с.; Сафонова С.Ю. Мотив преступления как основа сюжетной интриги в романе Ф.М.Достоевского “Преступление и наказание” и романе Диккенса “Тайна Эдвина Дрида”. Дисс., Москва, 2014, -194 с.

⁴. Masalan, qarang: Осмоловский О.Н. Достоевский и русский психологический роман XIX в. Дисс., Орел, 1999, -410 с.; Сапельников А.В. Феноменология изображения рационального и эмоционального в романе Ф.М.Достоевского “Идиот”. АКД, Волгоград, 2004, -20 с.; Савенкова Е.С. Система второстепенных персонажей романа Ф.М.Достоевского. “Идиот” в контексте литературной традиции. АКД, Нижний Новгород, 2006, -22 с.; Сальникова О.М. Роман Ф.М.Достоевского “Идиот”: проблема веры и неверия в морально-нравственных позициях героев. АКД, Москва, 2006, -28 с.; Сморгжко С.Н. Художественная эсхатология в романах Ф.М.Достоевского 1860-1870-х годов. АКД, Краснодар, 2007, -26 с.; Кузнецова Е.В. Художественная аксиология в романе Ф.М.Достоевского «Идиот». АКД, Магнитогорск, 2009, -24 с.; Голова С.В. Проблемы культуры, цивилизации и язычества в художественном мире литературе Ф.М.Достоевского. Дисс., Москва, 1999, -199 с.

⁵. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. –В.746.

⁶. Султон И. Абдулла Қодирий ҳақида. // Қизил Ўзбекистон, 26 окт. 1956.

⁷. Алиев А. Абдулла Қодирий. – Тошкент: АСН, 1974.

⁸. Мирзаев Иброҳим. Абдулла Қодирийнинг ижод йўли. – Тошкент: Фан,1977.

⁹. Мирвалиев Собир. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Фан, 2004.

¹⁰. Ганиев И. Фитратнинг трагедия яратиш маҳорати. – Тошкент: Фан, 1994. –145 б.

O‘lmas Umarbekov ijodi haqidagi Umarali Normatov¹¹ning, Odil Yoqubov asarlari to‘g‘risidagi Sh.B.Isayeva¹², A.Nosirov¹³ning, Tohir Malikning yirik kriminal mavzudagi asari “Shaytanat” haqidagi Murod Mansur¹⁴, o‘zbek detektiv nasri bo‘yicha Sh.Sulaymonov¹⁵ ishlari bu jihatdan xarakterli. Ammo bu ishlarda yoki shunga o‘xshash ilmiy asarlarda jinoyat, jazo masalalari yo‘l-yo‘lakay tarzda yoki shunchaki eslash shaklida qayd qilingan. Mazkur tadqiqotimizda o‘zbek asarlari bilan qiyosiy-tipologik tahlilni maqsad qilgan Fyodor Dostoyevskiy ijodini umumiy g‘oyaviy-badiiy ko‘lamda hamda jinoyat va jazo muammosi nuqtayi nazaridan o‘rganish bo‘yicha ancha-muncha tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda¹⁶.

O‘zbek adabiyotshunosligida, olimlar va ijodkorlar muhitida Dostoyevskiy ijodini o‘rganish, hatto unga hikoya, esse, she‘rlar bag‘ishlangan misollar ham mavjud. Pirimqul Qodirov, Ibrohim G‘afurov, Akmal Saidov, G‘aybullay Salomov, Najmiddin Komilov va Tilak Jo‘ra, Jovli Xushboq, Ilhom G‘aniyevlarning risola va maqolalarida Dostoyevskiy ijodining turli qirralari haqida fikr yuritilgan.¹⁷ Hatto bir qator xorijlik ijodkordan farqli o‘laroq, Dostoyevskiy olami, insoniy sifatlari, oilaviy ahvoliga oid badiiy asarlar ham yaratilgan. Masalan, Xurshid Do‘stmuhammadning “Yolg‘iz Allohim mening” hikoyasi, “Odamlar baxt uchun yaratilgan” essesi, Asqar Mahkamning she‘rlari e‘tiborni tortadi.

Ko‘rinadiki, F.M.Dostoyevskiy ijod olami O‘zbekistonda umumiy yo‘riqda o‘rganib kelinmoqda. Ammo jahon adabiyotshunoslik fanida an‘anaga aylangani kabi ma‘lum ilmiy konsepsiyalar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish ishlari hali yetarli emas. To‘g‘ri, bu borada akademik Akmal Saidovning “Aka-uka Karamazovlar” romani haqidagi, filologiya fanlari doktori Ilhom G‘aniyevning

¹¹. Normatov U. Nasrimiz an‘analari. – Toshkent: ACH, 1978.

¹². Isaeva Sh.B. Ўзбек тарихий романларида характер рухиятини тасвирлаш усуллари. НДА. Тошкент-2001.

¹³. Nosirov A. Odil Yoqubov romanlari poetikasi. DDA, Samarqand-2018.

¹⁴. Murod Mansur. Asadbeklar fojiasi. Tohir Malik. Tanlangan asarlar. 22-jild. Shaytanat. Birinchi kitob. -Toshkent: Sharq, 2019. 641-660-betlar.

¹⁵. Сулаймонов Ш. Ўзбек детектив насри: генезиси ва табиати. НДА. Тошкент-2002.-24 б.

¹⁶. Masalan, qarang: Добролюбов Н.А. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1959.; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. –Москва: Русские словари языка славянской культуры, 2002, -505 с.; Храпченко М.Б. Художественное творчество, действительность, человек. –Москва: Советский писатель, 1982, -416 с.; Волгин И. Последний год Достоевского. –Москва: Известия, 1990, - 656 с.; Пospelov Г.Н. Творчество Ф.М.Достоевского. –Москва: Знание, 1971, -64 с.; Кулешов В.М. Жизнь и творчество Ф.М.Достоевского. –Москва: Детская литература, 1979, -208 с. Вильмонт Н.Н. Достоевский и Шиллер. –Москва: Советский писатель, 1984, -284 с. О Достоевском. Творчество Достоевского в русской мысли 1881-1931 годов: сборник статей. –Москва: Книга,1990, -428 с.; Померанц Г. Открытость бездне. Встречи с Достоевским. М., Советский писатель, 1990. -384 с. Кирпотин В.Я. Избранные работы: в 3 томах. Том 2: Достоевский; Том 3: Разочарование и крушение Родиона Раскольников; Достоевский – художник. –Москва: Художественная литература, 1978, - 488 с.; -751 с.; Ф.М. Достоевский. В воспоминаниях современников. –Москва: Художественная литература, 1990. В 2-х т.Т.1.-624 с.; Т.2. -623.; Айтматов Ч. Статьи, выступления, диалоги, интервью. –Москва: АПН, 1988. -384 с. С беспощадным реализмом (статья), стр.16-18.

¹⁷. Қодиров П. Ҳалоллик ва эзгулик кадри. –Достоевский Ф.М.Телба. Роман. –Тошкент: АСН, 1981, (Сўнгсўз), 650-652-бетлар; Ғафуров И. Достоевский билан тунги суҳбат. Эссе. // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1992-йил 3-январь; Ғайбулла Саломов, Нажmiddin Комилов, Тилак Жўра. Буюк адиб даҳосига таъзим.// “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1981 йил 10 июль; Ғаниев И. Достоевскийни тушуниш ёки мангу бедорлик сири. –Тошкент: Фан, 2006. -102 б. Saidov A. Fyodor Dostoyevskiy va Ibrohim G‘afurov.// Aka-uka Karamazovlar. Roman. 1. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. 3-48-betlar; Saidov A. “Iblislar” – oghlik va bashorat romani. // “Jahon adabiyoti”, 2013, iyun, 85-86-betlar.

“Jinoyat va jazo” romani haqidagi ilmiy-amaliy tahlil asarlari bu boradagi o‘zbek adabiyotshunosligining nisbatan mazmundor namunalari sifatida xarakterlidir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Qarshi davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining “O‘zbek adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Fyodor Dostoyevskiy hamda o‘zbek nosirlari asarlarida jinoyat va jazo motivlarini yoritish orqali ularning qiyosiy-tipologik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jinoyat va jazo mavzusining genezisiga nazar tashlash orqali adabiyotda jinoyat va jazo motivining ishlanishi hamda uning nazariy jihatlarini tavsiflash;

jahon adabiyotida jinoyat va jazo motivini badiiy talqin qilish hamda kriminal syujetli asarlar spetsifikasini tahlil qilish;

Fyodor Dostoyevskiy asarlari misolida jinoyat va jazo motivini falsafiy, huquqiy va diniy muammo sifatida o‘rganish;

Dostoyevskiy badiiy konsepsiyasi bo‘yicha jinoyatning ijtimoiy-falsafiy, siyosiy, psixologik, diniy, favqulodda jinoyatlar singari 5 ta shaklining genezisini aniqlash;

Fyodor Dostoyevskiy va o‘zbek detektiv nasrida jinoyat va jazo motivlarining paydo bo‘lish sabablarini hayotiy asoslardan izlash hamda ijtimoiy muammo sifatida talqin qilish;

Fyodor Dostoyevskiy asarlari va o‘zbek detektiv nasrida jinoyat va jazo motivlarini qiyosiy-tipologik uslubda tahlil qilish;

o‘zbek adabiyoti detektiv nasrida ijodkor falsafiy konsepsiyasi, kriminal qahramon, syujet sxemasi hamda adabiy ta’sir va mushtarak jihatlarni o‘rganish.

Tadqiqotning obyekti. Dissertatsiya boblaridagi analitik tahlillar, qiyosiy tadqiq ko‘lami uchun A.Qodiriy (“O‘tgan kunlar”, “Shubha”), O.Yoqubov (“Ulug‘bek xazinasini”), S.Ahmad (“Sud”, “Ufq”), I.Qalandarov (“Shoxidamas bargida” qissasi, “Izma-iz”, “Firibgarlar”), A.Hakimov (“Ilon izidan”), O.Umarbekov (“Yoz yomg‘iri”, “Fotima va Zuhra”), T.Malik (“Shaytanat”, “Alvido, bolalik”, “Charxpalak”), Sh. Rizo (“Qor yog‘di, izlar bosildi”), O.Muxtor (“Ko‘zgu ortidagi odam”, “Mo‘jiza”), S.Ravshan (“Chordoqdan otilgan o‘q”), M.Soipov (“Devor ortidagi kishi”), F.Qilichev (“Zulmatdan sadolar”, “Zanjir”), X.Do‘stmuhammad (“Yolg‘iz”), N.Boqiyev (“Qatlnoma”), Abduqayim Yo‘ldoshev (“Katta o‘yin”, “Daryo”) kabi o‘zbek ijodkorlarining asarlari hamda jahon adabiyotining yetuk vakili F.Dostoyevskiyning, qisman Ch.Aytmatov, A. Dyuma, M. Tven, E. Po, A. Kristi, P. Merime, T. Drayzer, A. Kamyu qalamiga mansub roman va qissalari tahlil va tadqiq obyekti qilib tanlangan.

Tadqiqotning predmeti. Fyodor Dostoyevskiy va o‘zbek nasriy asarlari asosida jinoyat va jazoning turli ko‘rinishdagi motivlarini qiyosiy-tipologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, komparativistik, tavsiflash, analitik, psixoanaliz, biografik, tizimli yondashuv tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

real hayotdagi jinoiy ishlar, jamiyatning ijtimoiy-axloqiy muammolari, an'analari va ularning rivojlanishi kabi jinoyat va jazo motivi Fyodor Dostoyevskiy va o'zbek nasriy asarlarining badiiy konsepsiyasi, g'oyaviy-axloqiy mohiyati, diniy-ma'rifiy ahamiyati, mualliflar estetik strategiyasi orqali namoyon bo'lganligi aniqlangan;

jinoyat va jazo motividagi asarlarda qotillik, o'g'rilik, talon-tarojlik, bosqinchilik, xiyonatkorlik kabi hodisalarni badiiy aks ettirilishida voqelik diskursi, lisoniy elementlarning konstruktiv funksiyalari, adabiy ta'sir kabi poetik xususiyatlar dalillangan;

Sharq va G'arb adabiyotida jinoyat va jazo motivi falsafiy-ijtimoiy masalaning insoniy ong, axloq, ma'naviyat bilan uyg'unlashuvi; huquqiy-jinoiy harakatlarga baho berish, tekshirish, aniqlash, jinoyatga jazo muqarrarligi qonunining, ijtimoiy adolatning ustuvorligini namoyish etish va diniy – muqaddas ilohiy kitoblarda (Qur'on, Injil) qotillik, xiyonat, o'g'rilik, talon-tarojlik, bosqinchilik kabi illatlar qattiq qoralanib, bunday jinoyatlarni qilgan kishilarning do'zaxiy bo'lishi kabi muammolar zamirida voqelanishi isbotlangan;

F.M.Dostoyevskiy ijodida jinoyat va jazo motivi bilan yondosh holda davlat ish tizimining yaroqsizligi, amaldagi yetakchi rahbarlarning adolatsizligi, sud-huquq sohasidagi qora manfaat, pora illati bilan bulg'anganligi, xalqning qashshoqligi, jinoyatlar mag'zida yetar-yetishmovchilik fojiasi turishi kabi dolzarb ijtimoiy muammolar talqinining ustuvorligini asoslangan;

o'zbek detektiv nasri strukturasi jinoyat va jazo syujeti sxemasi, kriminal qahramon psixologiyasi, ijodiy-an'anaviy qamrovi Qur'oniy ta'limot, o'zbek mumtoz adabiyoti, milliy dostonchilik tajribalari, badiiy psixologik tadqiqot qirralari, xalq dostonlari shakli va mazmuni, milliy ma'naviyat jozibasi, adabiy-estetik fazilatlar asosida namoyon bo'lishi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

adabiyotshunoslikda inson va jamiyat munosabatlari tasvirlangan nasriy asarlardagi jinoyat va jazo mavzusining badiiy-estetik vazifalari turli tillarda yaratilgan asarlar misolida qiyosiy dalillangan;

badiiy asarlardagi hayotiylik, haqqoniylik, davrning o'tkir ijtimoiy, axloqiy, psixologik masalalarning dadil o'rta qo'yilishi, inson va uning ong ostidagi yashirin maqsad va g'oyalarning ochiqlanishi, keskin drammatizm, teran gumanizm bugungi kunda yoshlarning ma'naviyatini boyitishda, o'zligini anglashi va jamiyat bilan munosabatga kirishishida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan;

adabiyotshunoslik nazariyasi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik kabi fanlardan yaratilajak darslik va qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

mazkur ishda amalga oshirilgan tahlillar ko'lami, ilmiy-nazariy xulosalar, badiiy asarlarda, turfa janrdagi (drama yoki she'riyat) yaratmalar misolida jinoyat-

jazo mavzusini o'rganishda metodik va nazariy namuna vazifasini o'tashi mumkinligi belgilangan;

dissertatsiyada yaratilgan tahlil va talqinlar, kelingan xulosa va natijalar darslik, qo'llanma, monografik tadqiqotlar yaratishda, maxsus kurs va seminarlar rejasini tuzish va dars mashg'ulotlarini olib borishda, kurs va diplom ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalar tadqiqotchi tomonidan e'lon qilingan ilmiy ishlarda o'z ifodasini topganligi hamda bu xulosalar ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy baholanganligi, chiqarilgan xulosalarning aniq asoslanganligi, muammoning aniq qo'yilishi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, amalga oshirilgan tahlillarning tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, komparativistik, tavsiflash, analitik, psixozanaliz, biografik, tizimli yondashuv tahlil metodlari asosida aniqlab berilgani, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qiyosiy adabiyotshunoslik sohasida mavjud muammolarni tadqiq qilish, uning asosiy tahliliy xulosalaridan jahon va o'zbek adabiyotida inson va jamiyat munosabatlari ifodasiga asoslangan asarlar poetikasi haqidagi tasavvurlarni mukammallashtirish, Fyodor Dostoyevskiy va boshqa jahon adiblarining asarlari misolida inson ongostidagi jamiyat, muhit va shaxs psixologiyasi bilan bog'liq muammolarni jinoyat va jazo motivi misolida to'laqonli o'rganish, ularning o'zbek adabiyotshunosligiga ta'sirini aniqlash, xorij va o'zbek adabiyotidagi detektiv asarlarning tabiatini qiyosiy o'rgangan holda ular orasidagi mazmuniy-uslubiy mushtaraklik holatlarini aniqlash imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati adabiyotdagi jinoyat va jazo mavzusidagi asarlarning g'oyaviy teranligi real hayotda sud-huquq tizimi xodimlari uchun saboq va tanbeh bo'lishi mumkinligi, dissertatsiya faktik materiallari va ilmiy xulosalaridan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Jahon adabiyoti", "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Psixologiya" o'quv kurslari, umumta'lim maktablarining "Adabiyot" o'quv predmeti bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borishda, bitiruv malakaviy va magistrlik ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badiiy adabiyotda jinoyat va jazo muammosi qiyosiy-tipologik tadqiqi Fyodor Dostoyevskiy va o'zbek nasri misoli yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

jinoyat va jazo motivi real hayotdagi jinoiy ishlar, jamiyatning ijtimoiy-axloqiy muammolari, an'analari va ularning rivojlanishi Fyodor Dostoyevskiy va o'zbek nasriy asarlarining badiiy konsepsiyasi, g'oyaviy-axloqiy mohiyati, diniy-ma'rifiy ahamiyati, mualliflar estetik strategiyasi, tafakkuri, lisoniy elementlarning konstruktiv funksiyalari orqali namoyon bo'lganligiga oid nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida

2017-2020-yillarda bajarilgan OT-FI-030-raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 5-maydagi №01/10-886-son ma’lumotnomasi). Natijada adabiyotshunoslikda inson va jamiyat munosabatlari tasvirlangan nasriy asarlardagi jinoyat va jazo mavzusining badiiy-estetik vazifalari turli tillarda yaratilgan asarlarga oid materiallar va xulosalar bilan boyitilgan;

jinoyat va jazo motividagi asarlarda qotillik, o‘g‘rilik, talon-tarojlik, bosqinchilik, xiyonakorlik kabi hodisalarni badiiy aks ettirilishida muallif tafakkuri, voqelik diskursi, lisoniy elementlarning konstruktiv funksiyalari, adabiy ta’sir kabi poetik xususiyatlariga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2012-2016-yillarda bajarilgan F1-FA-0-43429, FA-F1, G002 “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” hamda 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihalarni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 12-apreldagi №17.01/56-son ma’lumotnomasi). Natijada badiiy asar matni orqali muallifning dunyoqarashini tahlil etish, detektiv-kriminal asarlarda obrazlarning o‘ziga xosligini, psixologik jihatlarini talqin etishda yozuvchi mahorati, badiiy san’atlarni qo‘llashdagi zukkoligini aniqlashda foydalanilgan;

Sharq va G‘arb adabiyotida jinoyat va jazo motivi falsafiy-ijtimoiy masalaning insoniy ong, axloq, ma’naviyat bilan uyg‘unlashuvi; huquqiy – jinoiy harakatlarga baho berish, tekshirish, aniqlash, jinoyatga jazo muqarrarligi qonunining, ijtimoiy adolatning ustuvorligini namoyish etish va diniy-muqaddas ilohiy kitoblarda (Qur’on, Injil) qotillik, xiyonat, o‘g‘rilik, talon-tarojlik, bosqinchilik kabi illatlar qattiq qoralanib, bunday jinoyatlarni qilgan kishilarning do‘zaxiy bo‘lishi kabi muammolar zamirida voqelanishiga oid nazariy xulosalardan O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialida bajarilgan F1-A1-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyiha ishini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2023-yil 1-maydagi 212-son ma’lumotnomasi). Natijada amalga oshirishda badiiy adabiyot nasrida jinoyat va jazo motivi shakllari va ijodkorning poetik mahorati, milliy adabiyotda obrazlar psixologiyasiga doir nazariy qarashlarni boyitishga xizmat qilgan;

F.M.Dostoyevskiy ijodidagi jinoyat va jazo motivi bilan yondosh holda davlat ish tizimining yaroqsizligi, mavjud yetakchi rahbarlarning adolatsizligi, sud-huquq sohasidagi qora manfaat, pora illati bilan bulg‘angan, xalqning asosiy qismi qashshoqligi, jinoyatlar mag‘zida yetar-yetishmovchilik fojiasi turishi kabi g‘oyat dolzarb ijtimoiy muammolar talqinining ustuvorligini belgilaganligi bilan bog‘liq ilmiy va amaliy natijalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining amaliy loyihasidan foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2023-yil 13-martdagi 01-03/377 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada badiiy kengashlari hisobot

yig'ilishlarida, to'garaklar faoliyatida, mahorat darslarida, yosh ijodkorlar bilan kitobxonlik uchrashuvlarining mukammallashuviga xizmat qilgan;

o'zbek detektiv nasri strukturasi jinoiat va jazo syujeti sxemasi, kriminal qahramon psixologiyasi, ijodiy-an'anaviy qamrovi Qur'oniy ta'limot, o'zbek mumtoz adabiyoti, milliy dostonchilik tajribalari, badiiy psixologik tadqiqot qirralari, xalq dostonlari shakli va mazmuni, milliy ma'naviyat jozibasi, adabiy-estetik fazilatlar asosida namoyon bo'lishi bilan bog'liq xulosa va natijalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasi "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyatining "Ta'lim va taraqqiyot", "Adabiy jarayon", "Jahon adabiyoti" dasturlari ssenariysini tuzishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 14-apreldagi 04-36-578-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashuvi haqidagi ma'lumotlar radiokanal ijodiy jamoasining mavzu doirasida chuqurroq mulohaza yuritishi uchun zamin yaratilgan.

o'zbek detektiv nasri strukturasi jinoiat va jazo syujeti sxemasi, kriminal qahramon psixologiyasi, ijodiy-an'anaviy qamrovi Qur'oniy ta'limot, o'zbek mumtoz adabiyoti, milliy dostonchilik tajribalari, badiiy psixologik tadqiqot qirralari, xalq dostonlari shakli va mazmuni, milliy ma'naviyat jozibasi, adabiy-estetik fazilatlar asosida namoyon bo'lishi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining "Oltin voha" dasturidagi "Ochiq muloqot" radioeshittirishining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 2-maydagi 17-05/77-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur radioeshittirish uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy dalillarga boy bo'lishini ta'minlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 20 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro va 14 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma'ruzalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta respublika miqyosidagi va 7 ta xalqaro bazalar ro'yxatiga kirgan xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, asosiy to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 250 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari berilgan, obykti va predmeti tavsiflangan,

ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jahon adabiyotida jinoyat va jazo motivining badiiy talqini”** deb nomlangan. Bobning “Jinoyat va jazo – falsafiy, huquqiy va diniy muammo sifatida” deb nomlangan dastlabki faslida jinoyat va jazo masalasi asrlar bo‘yi ilm-fan va ijodning, gumanitar fanlarning o‘rganish va targ‘ib qilish vositasiga aylanib kelayotganligi, o‘zaro dushmanlik, adovat, hasad oqibatida turli katta-kichik jinoiy holatlar, keskin kelishimovchiliklar sodir bo‘layotganligi, hayotning rivojlanish maromi qarama-qarshiliklar dialektikasi qonuni bilan bevosita aloqadorligi inson ongosti o‘zgarishlari natijasida turli jinoyatlarning kelib chiqishini taqozo etayotganligi kabi muammolar xususida fikr yiritilgan. Asrlar davomida jinoyatchilikka qarshi kurashning badiiy-estetik quroli sifatida badiiy adabiyotda in’ikos etgan detektiv asarlarning eng qadimgi ildizlari qadim o‘tmishga, xalq og‘zaki ijodi manbalariga borib taqaladi. G‘arb va Sharq adabiyotshunosligida detektiv adabiyotga xos belgilarning xalq og‘zaki ijodiga tutashganligini ko‘rish mumkin. Sharq adabiyotida adolatli va erkparvar hukmdor orzusi haqidagi g‘oya liro-epik, lirik yoki nasriy asarlar, hatto tarixiy haqiqatga aylangan afsona, rivoyat yoki eposlar mavzusi sifatida keng talqin etilgan.

Dissertatsiyada jinoyat va jazo motividagi asarlarni mazmun-mohiyatiga ko‘ra quyidagicha tasnifladik:

1. Tarixiy-ijtimoiy mohiyatga oid jinoyat-jazo motividagi asarlar: (A.Firdavsiyning “Shohnoma” eposi; Gomerning “Iliada”, “Odisseya” dostonlari; A.Dantening “Ilohiy komediya” dostoni; “To‘maris” va “Shiroq” afsonalari; “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari; A.Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostoni; L.Tolstoyning “Tirilish” romani; A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani; F.Kafkaning “Jarayon”, “Jazo koloniyasi” romanlari; Ch.Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani; O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani; S.Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi; A.Kamyuning “Begona” romani; J.Joysning “Uills” romani; T.Drayzerning “Amerika fojiasi” romani; Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani.)

2. Diniy-ilohiy ruh bilan bog‘liq jinoyat-jazo motivi mavjud asarlar: (Ahmad Yassaviy, “Hikmatlar devoni”; Sulaymon Boqirg‘oniy, “Boqirg‘oniy kitobi”; Nosiriddin Rabg‘uziy, “Qissasi Rabg‘uziy”; Dante Aligeri, “Ilohiy komediya” eposi; Fyodor Dostoyevskiy, “Aka-uka Karamazovlar” romani; Mixail Bulgakov, “Usta va Margarita” romani; Chingiz Aytmatov, “Qiyomat” romani; Odil Yoqubov, “Ulug‘bek xazinasi” romani; Durbek, “Yusuf va Zulayho” dostoni; Hamza, “Maysaraning ishi” komediyasi; Abdurauf Fitrat, “Shaytonning Tangriga isyoni” qissasi; Abdulla Qodiriy, “Mehrobdan chayon” romani.)

3. Falsafiy-axloqiy mohiyatga ega jinoyat va jazo motividagi asarlar: (V.Shekspirning “Gamlet” tragediyasi; A.Dyumaning “Graf Monte Kristo” romani; F.Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo”, “Telba” romanlari; L.Tolstoyning “Tirilish” romani; Ch.Aytmatovning “Oq kema” qissasi; G.Markesning “Oshkora qotillik qissasi” asari; A.Qahhorning “Sarob” romani; S.Ahmadning “Sud” qissasi; S.Ahmadning “Jimjitlik” romani.)

Insoniyat tarixida jinoyat va jazo hodisalari xarakteri va shakl-shamoyiliga ko'ra, o'ziga xos ijtimoiy- falsafiy turlarga bo'linishini kuzatish mumkin:

Birinchi – tarixiy-falsafiy, ijtimoiy-huquqiy muammo sifatida shakllangan jinoyat va jazo yo'nalishida siyosiy-ijtimoiy xarakterdagi bosqinchilik jinoyatlari va ularning jazolanishi yoxud jazosiz qolishi ham falsafiy-tarixiy hodisalar haqiqati insoniyat tamaddunida uchraydigan tipik masalalardan biridir.

Ikkinchidan–falsafiy-tarixiy, ijtimoiy-falsafiy mohiyat tashiydigan mahvkorlik jinoyatlari adabiy asarlarda ham eng ko'p talqin etilgan jinoiy harakatlar bo'lib, noinsoniy jinoyat turi hisoblanadi. Jahon adabiyotining “O'g'uznoma” “Jangnoma”, “Odisseya”, “Iliada”, “Ilohiy komediya”, “Xamsa” kabi ulkan adabiy yodnomalari markazida bosqinchilik, mahvkorlik jinoyati va uni fosh qilish nominatsiyasi turadi. Jinoyatkorlarning Olloh tomonidan jazolanishi masalasi kichik janrdagi masal va she'rlardan tortib, hikoya, qissa yoki roman janri namunalarida ochib berilgan.

Birinchi bobning “Jahon adabiyotida jinoyat va jazo motivi” deb nomlangan 2-faslida jahon adabiyoti namunalarida real hayotda sodir bo'lgan va bo'ladigan jinoiy harakatlar, bu jinoyatlarning jazosi kabi masalalarning badiiy adabiyot namunalarida talqini masalasi xususida so'z yuritilgan. Ta'kidlash joizki, badiiy asarlarda ifodalangan jinoyat va jazo muammosi kundalik hayotda, olis va yaqin tarixda ro'y bergan shu hodisotlarning ancha yorqin, pafos darajasiga ko'tarilganligi, uning sabablari va oqibatlari, natijasi, jinoyatning jazo topishi yoki jazo topmaganligi kabi adolatsiz jihatlari bilan mukammal ravishda o'z talqiniga ega ekanligi bilan e'tiborni tortadi.

Insoniyat tarixida va badiiy asarlarda o'z talqinini topgan jinoiy harakatlarning xarakterli ko'rinishlarini quyidagicha guruhladik:

1. Bosqinchilik jinoyatlari eng katta, eng ko'p tarqalgan, siyosiy mohiyat kasb etgan jinoyat- Aleksandr Makedonskiy, Eron shohlari, Chingizxonning Turkistonga, qolaversa, dunyoning ko'p qismiga, Angliyaning Hindistonga, Anglosakslarning Amerika qit'asiga, mahalliy yer egalari hindularning yerlariga, Napoleon va Gitlarning Rossiyaga, Chor Rossiyasining Sibir, Kavkaz va Markaziy Osiyoga hujumlari va bu o'lkalarni zabt etishi bilan bog'liq qonli urushlarni misol keltirish mumkin.
2. Qotillik jinoyati- siyosiy-ijtimoiy xarakterga ega bunday keng ravishdagi jinoyat turi hukmdorlarning taxt talashishi bilan bog'liq harakatlarida, oilaviy, er-xotin muhitida sodir bo'lib kelayotgan jinoiy harakatlar.
3. Axloqiy tubanlik bilan bog'liq jinoyatlar- poraxo'rlik, sudxo'rlik, hasad, rashk, talon-tarojlik kabilar.
4. Ig'vogarlik jinoyatlari - odamlar, adolatli rahbarlar ustidan asossiz, noo'rin ayblovlar bilan shikoyatbozlik qiladigan, sha'niga putur yetkazadigan qora niyatli kishilar qilg'iligi.
5. Zinokorlik jinoyatlari-axloqan nopok kimsalarning xatti-harakatlari.
6. O'g'rilik jinoyatlari - odamzod tarixida ko'p uchraydigan sharmandali jinoyatlardan biri.
7. Qasddan sodir etilgan jinoyat: xo'rlash, tan jarohati yetkazish, tuhmat qilish, maxsus zarar yetkazish kabi hodisalar bilan bog'liq turfa ko'rinishdagi jinoyatlar;

8. Favqulodda sodir etilgan jinoyatlar: tortishuv jarayonida bexosdan turtib yiqitish oqibatidagi o'lim, guvohlikni yo'qotishdagi qotillik, bexosdan ko'zi tushgan qimmatbaho buyumni o'g'irlash va shu kabilar.

Bunday jinoyatlar, ularning jazosi bilan bog'liq masalalar jahon adabiyoti namunalarida turli badiiy talqinlariga ega bo'lgan shakllarda uchraydi.

Bobning "Kriminal syujetli asarlar spetsifikasi" deb nomlangan uchinchi faslida jahon adabiyotida, ayniqsa, XIX asrdan e'tiboran detektiv-sarguzasht, kriminal xarakterdagi asarlar yaratish muhim adabiy harakat tusini olganligi, detektiv va kriminal motivdagi asarlarni alohida, mustaqil janr sifatida talqin etish harakatlari ham paydo bo'la boshlaganligi xususida fikr yuritiladi.

Sarguzasht-detektiv va kriminal asarlarda dramatik obraz yoki tragik obrazning bir qadar keng, mukammal darajasi nasriy yoki dramatik asarlar misolida namoyon bo'ladi. Dostoyevskiy adabiy uslubining favqulodda jozibasi tufayli jinoyatchi kimsaning o'z gunohini o'zi ochib, ashaddiy jinoyati uchun o'z-o'ziga jazo belgilaganligiga guvoh bo'lamiz. Asar jahon adabiy jarayoniga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Romanda sobiq talaba Rodion Romanovich Raskolnikov tomonidan sodir etilgan jinoyat va uning oqibatlari haqida hikoya qilinadi. Shu ma'noda adib o'z asari orqali jiddiy ijtimoiy masalalar talqiniga erishadi. Rodion Raskolnikovning qotillik qilishgacha borib yetishi bir qator ijtimoiy-sotsial omillar oqibati bilan bog'liqligi romanda izchillik bilan tahlil qilingan.

F.Dostoyevskiy Raskolnikovning kampirni o'ldirgan voqeasini kuchli hayajon va og'ir ruhiy iztirob bilan tasvirlagan.

" – E, buncha chandib tashlamasa sabilni! – jahli chiqib gapiradi kampir va unga qarayman deb burilayotganday bo'ladi. Ammo... Rodionning fikricha, u yovuz niyatini endi sira ham kechiktirib bo'lmaydi deb hisoblardi.

U boltani butunlay sopidan chiqarib, uni ikki qo'llab azot ko'taradi va o'zi beixtiyor nima qilayotganiniyam bilmay-sezmay, unchalik kuchanmay shuursiz sur'atda to'mtoq tomoni bilan kampirning boshiga uradi...

O'lik qarshisida kampirning singlisi Lizaveta garang-lol bo'lib turardi. Raskolnikov qo'lida bolta bilan unga tomon tashlanadi. ...Boltaning tig'i naq uning qanshariga kelib tushadi va miyasini qoq ikkiga bo'lib yuboradi. Lizaveta shilq etib qulaydi ("Жиноят ва жазо".53-бет).

Yozuvchi bu fojiali, o'ta dahshatli hodisalarni qanchalik yurak hovuchlab, beqiyos dardkashlik bilan tasvirlaganligini sezish qiyin emas. Rodion Raskolnikov odamlarga, jamiyatga, taraqqiyotga bir pullik foydasi tegmay yashayotgan sudxo'r kampirning o'zi bilan bir havodan nafas olayotganidan nafratlanar edi. U o'zining ulug' maqsadi yo'lida sudxo'r kampir kabilarning ustidan bemalol o'tsa, ziyonsiz, deb o'ylardi. Tergovchi Raskolnikov bilan bo'lgan birinchi uchrashuvda: *"Siz kecha mendan bu ... o'ldirilgan ayol va uning singlisi haqida ... rasmiy ravishda ... so'ramoqchi ekanligingizni aytdingizmi?"*¹⁸ bu uchrashuvdan so'ng u o'zining gumoni to'g'ri ekanligiga yanada amin bo'ldi. Shu bilan birga, tergovchi o'z shubhalarini to'g'ridan- to'g'ri bildirmaydi, Raskolnikovga hujum qilmaydi, faqat

¹⁸ . Dostoyevskiy F.M. Jinoyat va jazo. Roman. –Toshkent: Ilm – ziyo-zakovat, 2021. 512-bet.

maslahatlar beradi, imo-ishora, qochirimlar qiladi va yigitni o‘z so‘zidan ilintirishga harakat qiladi.

Tergovchi va jinoyatchi suhbatidagi qochirimlar, jinoyatchining o‘z-o‘zini fosh etishi tasvirini O‘.Umarbekovning “Yoz yomg‘iri” qissasida kapitan Aliyev Olloyorovning jinoyatkor qotil ekanligini uning ruhiy bezovtaliklari orqali aniqlaganligida ham ko‘rish mumkin.

Munis Saidova... Munis Saidovani o‘ldirib ketishibdi.

– *Yo‘g‘-ye! – Olloyorovning ko‘zlari qinidan chiqib ketayozdi.*

– *Nega, Qachon?*

– *21- avgust kechasi, – kapitan unga yana jiddiy tikildi.*

Bu gal Olloyorov dosh berolmay ko‘zini chetga oldi”¹⁹

– *“Baribir jabr bo‘libdi, attang... Qotil topildimi, o‘rtoq kapitan?*

– *Qidiraymiz...*

– *Ha, yaramaslar! – Olloyorov mushtini tugdi. – Xuliganlar! Bunaqalarni topish ham hazil gap emas. Odam o‘ldiradi-yu, mana men, deb turarmidi? Allaqachon qochib ketgandir?..*

– *Shu yerda bo‘lishi ham mumkin, – dedi kapitan”²⁰*

Mazkur o‘rindagi sun‘iy bilib-bilmaslikka olingan kinoyaviy so‘zlar (“attang”, “yaramaslar”, “mana men, deb turarmidi” kabi) va, ayniqsa, kapitanning Munisxon qotilining “shu yerda bo‘lishi ham mumkin” degan ilmoqli tagdor gapi psixologik jihatdan jinoyatchi kirdikorlarini ochib tashlovchi detal-kalitlar, psixologik tafsilotlar majmui sanaladi.

Demak, jinoyat va jazoning falsafiy, ijtimoiy, huquqiy va diniy muammo ekanligi badiiy asarlarda o‘zining badiiy in‘ikosini topib kelayotganligi bilan ham ilmiy-ma‘rifiy tasdig‘iga ega. Falsafiy salmoq, psixologik tahlil, axloqiy-ma‘naviy daraja har bir mashhur asarga xos sinkretik komponentlar bo‘lishi adabiy qonuniyat sanaladi. Ayniqsa, falsafiy-g‘oyaviy salmoq asarning, jumladan, jinoyat-jazo motividagi yaratmalarning talqinida hayotiylik, ma‘naviy-ijtimoiy saboq berish qudratiga ega bo‘ladi. Bu masalalar Dostoyevskiy, Tolstoy, Edgar Po, A.Konan-Doyl, O‘.Umarbekov, S.Ahmad, T.Malikning detektiv, kriminal mavzuga oid asarlari mazmun-mohiyati bilan yanada o‘z isbot-dalilini topadi. Adabiy aloqadorlik masalalarini o‘zaro qiyosiy-tipologik usulda o‘rganishda, garchi bunday asarlar o‘rtasida bir-biriga o‘xshash adabiy detal, mikroshujet, obrazlar xatti-harakati kabi jihatlarda yaqinlik belgilari ko‘zga tashlansa-da, ularni o‘z-o‘zicha umummoheyati jihatdan, albatta, betakror adabiy yutuqlar mahsuli sifatida baholash kerak.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Fyodor Dostoyevskiy asarlarida jinoyat va jazo muammosining ijtimoiy, axloqiy-psixologik aspektlari”** deb sarlavhalangan. Mazkur bobning datslabki faslida “Fyodor Dostoyevskiy asarlarida jinoyat va jazo motivi paydo bo‘lishining hayotiy asoslari” tadqiq qilingan. F.Dostoyevskiy romanchilik maktabining eng taniqli va eng o‘qimishli namoyandalaridan biridir. Adib ijtimoiy va adabiy faoliyatining boshlanishi

¹⁹. Umarbekov O‘. Yoz yomg‘iri. –Toshkent, ASN, 1974. – 289 B., 245-bet.

²⁰. Umarbekov O‘. O‘sha asar. – 247-bet.

Rossiyada demokratik g'oyalarning faol targ'ibotchilari – Belinskiy, Gersen, Nekrasov, Saltikov-Shedrin, Dobrolyubov, Chernishevskiyilar ijodining gullagan davriga to'g'ri keldi. Demokratiya va insonparvarlik g'oyalari bo'lajak adib dunyoqarashining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijodiy faoliyatini 1844- yilda boshlagan F.Dostoyevskiy xo'rlangan, ijtimoiy adolatsizlikka duchor bo'lgan bechora kishilar qismati hikoya qilingan ilk asari – “Bechora kishilar” romani tufayli 1846-yildayoq adabiy jamoatchilik e'tiboriga tushgan edi. Epistoliar adabiy shaklda yozilgan bu romanda noteng kapitalistik mafkura hukmron bo'lgan shaharda yashayotgan oddiy kishilarning o'ta ayanchli va tushkun taqdiri hikoya qilinadi. So'ngra u yana birin-ketin “Qiyofadosh” (1846) va “Oq tunlar” (1848) qissalarini ham shu xarakterdagi ijtimoiy mavzuga bag'ishladi. Adabiyotshunoslar Dostoyevskiy romanlariga xos haqiqatg'oylik, kambag'al-qashshoq kishilar timsolining yorqin namunalari yaratilganligini adibning o'z hayotidagi tushkunliklari bilan izohlaydilar. M.Baxtinning qayd qilishicha, “Dostoyevskiy ijodining hayotiyliigi insoniy aziyatlarni har bir personaj ma'naviy-axloqiy darajasiga puxta singdirib, yuksak realistik uslubga erisha olishida ham namoyon bo'ladi”²¹. Olim azob-uqubat zahrining singib-singishib ketganligi bilan bog'liq haqqoniyatni, avvalo, bu adibga xos shaxsiy taqdir ko'rguliklarining zamin yaratganligi bilan bevosita aloqadorligini ta'kidlamochi. Dostoyevskiy 4 yil ozodlikdan mahrum etiladi, keyin esa Sibirdagi intizom batalyoniga oddiy askar qilib surgun qilinadi. Sarson-sargardonlikda o'tgan surgun yillari yozuvchi hayotida ayanchli iz qoldiradi, sog'ligiga qattiq zarar keltiradi, eng muhimi – adibda erk va ozodlik kurashiga bo'lgan ishtiyoqni so'ndiradi. Adib “Hayot faqat dard va alam” degan xulosaga kelgan edi. U do'stlariga yozgan maktublaridan birida o'zining bu aziyatli qismati borasida shunday deydi: “Daydilar va qaroqchilar qismatiyu jamiki tiyra, kulfatzada turmush tarziga xos beaded qissalar guvohi bo'lganinga ishongim kelmaydi! Bular asosida jild-jild asarlar yaratsa bo'ladi. Naqadar ajoyib xalq. Surgunda umrim behuda sovrulmaganiga beaded shukr. Rossiyani boshdan-oyoq ko'rmagan taqdirda ham, rus xalqini shu darajada o'rgandimki, bu baxt kamdan-kam odamga nasib etadi”²².

Yuqoridagilardan kelib chiqib, adabiyotshunos olim Ilhom G'aniyevning ushbu fikrlari Dostoyevskiy olamining bir qirrasini ochgandek tuyuladi: “Ulkan ijtimoiy g'oyalar va kambag'allik, muhabbat, ruh ozodligi, o'lim hukmi hamda beqiyos iste'dod, Katorga uqubatlari, ijodga mubtalolik, dardi bedavo xastalik va dunyoni larzaga solgan asarlar, bemisl ulkan tafakkur va o'yin ishtiyoqi, bolalarcha beg'ubor qalb, bolalarcha injiqlik... – shularning bari bir inson siymosi va taqdirida mujassamlashgan edi. Dostoyevskiyning bebaho asarlari, tafakkur durdonalari, balki ayni shu tazodlar hosilasidir”²³. Adibning “Telba” romanida jinoyatlar, qotilliklar, xiyonatlar tasviriga keng o'rin berilmagan bo'lsa-da, u o'zining muhim g'oyaviy maqsadini – yaxshilarga, ezguqalb kishilarga nisbatan zulm qilgan,

²¹. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. М., Русские словари языка славянской культуры, 2002. –С.39.

²². Fyodor Dostoyevskiyning tafakkur javharlari. To'plab nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi: I.G'aniyev. –Toshkent: Ijod Press, 2019, 36-bet.

²³. O'sha asar. 3-bet.

ularning shaxsiyatini, haq-huquqini yemirgan kimsalarni jinoyatchilar sifatida talqin etganligi sezilib turadi. F.Dostoyevskiyning o‘zi ruhiy xastalikning azobini bir umr tortib o‘tgan inson sifatida o‘zining shu shaxsiy aziyatli hayotini knyaz Mishkin siymosida jonlantirganidan asar va yetakchi obraz ancha tabiiy, ta’sirchan chiqqan. Dostoyevskiy poetik mahoratining jozibasi bilan yaratilgan knyaz Mishkin obraziga xos fazilatlarni nozik ilg‘agan. Aytish mumkinki, Knyaz Mishkin obrazi xarakter-mohiyatiga ko‘ra Fonvizmning bechora Liza, Mark Tvenning Vilson (“Ovsar Vilson”), Tolstoyning Nikita (“Xo‘jayin va xizmatkor”), Ch.Aytmatovning Mo‘min bobo (“Oq kema”), Edigey (“Asrga tatigulik kun”), M.M. Do‘stning Mustafo (“Chollardan biri”) kabi bechorahollik, beozorlik timsoli bo‘lgan mushtarak obrazlardir.

Mazkur bobning ikkinchi faslida “Fyodor Dostoyevskiyning jinoyat va jazo mavzusidagi asarlarida ijtimoiy muammolar talqini” o‘rganilgan.

“Jinoyat va jazo”, “Aka-uka Karamazovlar”, “Xo‘rlanganlar va haqoratlanganlar”, “Bechora kishilar” singari romanlari qashshoqlik va nochorlik simfoniyasi kabi ruhiy tushkun bandalarning obrazlar galereyasi yaratilgan polotnolardir. Professor V.Y.Kirpotin jamiyatdagi adolatsizliklar, nosog‘lom muhit, insoniy qiyofaning tubanlashuvi ijtimoiy muammolar girdobini urchitayotganligini adib nigohi bilan tahlil qiladi. Ya’ni: “Raskolnikov duch kelgan bandalarga baxt ato etishni hech qachon unutmadi. U Dunya va Lujining nikohini uyushtirish kerakligini bilardi. Yana u onasi va singlisining kelajagi to‘g‘risida muttasil qayg‘urardi. Yaqinlariga nisbatan muhabbat ham uni munofiqlar muhitidan xalos bo‘lishga imkon bermas edi. Raskolnikov hali sudgacha va qamoqqacha bo‘lgan vaqtda ham o‘zini haqiqiy qamoqdagi kabi tushkun va aziyatli kayfiyatda sezardi. Uning uchun yorug‘likdagi tushkun hayot haqiqiy qamoqdan chandon yomon edi”²⁴. Ko‘rinadiki, F.Dostoyevskiy yozuvchilar orasida yomonlik va yovuzlik illatining fojiona jihatlarini yaqqol tasvirlay olgan va buning sababi, avvalo, dinsizlik va xalqqa jabr qilish ekanini isbotlagan.

XIX asrda kun tartibiga chiqqan barcha mudhish voqea va mushkul masalalarni F.Dostoyevskiy o‘zining buyuk asarlarida badiiylik bilan bashorat qila olgan. “Besh buyuk kitob” turkumining birinchi kitobi – “Jinoyat va jazo” ijtimoiy-psixologik, siyosiy-falsafiy roman bo‘lib, asar jahon adabiy jarayoniga juda katta ta’sir ko‘rsatgan. Shu ma’nodan adib o‘z asari orqali jiddiy ijtimoiy masalalar talqiniga erishadi. Rodion Raskolnikovning qotillik qilishgacha borib yetishi bir qator ijtimoiy-sotsial omillar oqibati bilan bog‘liqligi romanda izchillik bilan tahlil qilingan.

Adib Rodionning hamisha ruhiy tushkunliklar, amalga oshmaydigan orzulari ummoni ichra kuyib-yonib yashaydigan mashaqqatli hayoti manzaralarini chuqur psixologik rakurslarda talqin etgan. “Bu bechora yigit bekadan boshdan-oyoq qarzga botib yashardi, shuning uchun ham unga duch kelishdan o‘zini olib qochar, yigitlik ori xuruj qilardi”²⁵, - deya ta’riflaydi. Romanda Rodion Raskolnikovning ma’naviy-ruhiy olami, uning ayanchli ijtimoiy hayoti dinamik usulda tasvirlanadi.

²⁴ . Кирпотин В.Я. Разочарование и крушение Родиона Раскольникова // Кирпотин В.Я. Избранные работы в трёх томах. Том 3. -Москва, Художественная литература, 1978. стр.205.

²⁵. Dostoyevskiy F.M. Jinoyat va jazo. Roman. -Toshkent, Ilm – ziyo-zakovat, 2021,- 5-bet.

“Kriminal syujetli asarlarda Fyodor Dostoyevskiy axloqiy prinsiplarining badiiy in’ikosi” deb nomlangan uchinchi faslda kriminal syujetli asarlarda Fyodor Dostoyevskiy axloqiy prinsiplari namoyon bo’lishi jihatlarini tahlilga tortilgan. Tahlillar shuni ko’rsadiki, daho yozuvchi hech qachon qotillikni, yovuzlikni, shaxslararo tubsiz ziddiyatni oqlamaydi. Ijodkor axloqsizlik, vijdotsizlik, manfaatparastlik, shuhratparastlik, ta’ma, jamiyat o’rnatgan me’yorlarga qarshi harakatlarning taraqqiyotga zidligini dramatik to’qnashuvlarga boy va qiziqarli kriminal syujetlar uyg’unligida tasvirlaydi.

Kriminal syujetli romanlar yaratishda F.Dostoyevskiy dunyo adabiyotida o’z maktabini yaratgan daholardan biridir. Adibning yaratgan kriminal syujetli nasrida besh fazilat ajralib turadi: birinchidan, g’oyaning umumbashariyligi; ikkinchidan, syujetning qiziqarliligi va ko’p tarmoqli ekanligi; uchinchidan, falsafiyligi; to’rtinchidan, tafsilotlarning dramatism va tragizmga yo’g’rilganligi; beshinchidan, yuksak badiiylik va psixologizmga boyligi.

1. Har qanday badiiy asar maqsadlari tizimida falsafiy, siyosiy, axloqiy, ma’naviy masalalar talqini ko’zda tutiladi, hatto ba’zi asarlar siyosatdan, falsafiy ko’lamdan xoli bo’lishi mumkin. Ammo har qanday katta-kichik asarda axloqiy nuqtayi nazar ifodasi albatta bo’lmog’i shart hisoblanadi.

2. F.Dostoyevskiy Raskolnikov -ijarachi sudxo’r kampir munosabatlarini nihoyatda chuqur va mukammal tahlil qilgan. Shu jarayonda yozuvchi ko’zlagan va niyat qilgan axloqiy masalalar, masalan, yosh yigitning joniga tekkan, boyluk uchun mukkasidan ketgan kampirni o’ldirish fikrining naqadar jirkanch ekanligini sezib, qattiq qiynalishlarini psixologik jihatdan, jumladan, muallif nutqi psixologiyasi orqali anchayin chuqur alpozda talqin etadi. *“Yo, Parvardigor! Bunchalar yaramas hammasi! Va nahotki, men... Yo’q, bo’lmagan gap, bema’nilik! – deb qo’shib qo’yadi Raskolnikov qat’iyat bilan. – Nahotki, shunday dahshatli bir narsani qilish mening qo’limdan kelsa? Nahot, mening dilimda shunchalar qabohat yashirinib yotgan bo’lsa! Qanchalar palid, iflos, rasvo, rasvo! Yana men bir oydan beri...”* (“Jinoyat va jazo”, 53-bet).

3. Biroq u yuragini junbushga keltirgan bu narsalarni ifodalab berolmasdi. Hali u kampirning huzuriga kelayotgan paytdayoq, yuragini ezib, vayron qilib tashlayotgan behad nafrat mana endi shu darajaga borib yetadiki, bundan u o’zini qo’yarga joy topolmas, ko’nglini bosgan qorong’ulikdan qanday qutulishini ham bilmasdi. Bu – baribir shum kampir joniga qasd qilish lozimligi haqidagi qora niyat edi. Yozuvchi Rodionning beg’ubor, kamxarj yigit sifatida bu qotillikka qo’l urishdan hazar qilib, qanchalik o’zini bosishga, bu fikridan qaytishga uringanligini psixologik jihatdan mantiqan asoslab berishga harakat qilgan.

U o’zining ulug’ maqsadi yo’lida sudxo’r kampir kabilarning ustidan bemalol o’tsa, ziyonsiz, deb o’ylardi. Rodionni vijdon azobiga qoldirgan qutqu ham Lizavetaning o’limi edi. Yigit qilgan ishidan o’zini-o’zi tergar, oqibatni o’ylardi. Yozuvchi bu kabi bechora odamlar, ezilgan shaxsiyatlar timsollarini hali

birinchi romani “Bechora kishilar” asaridayoq yaratgan, bu bilan XIX asr Chor hukumatining odamkush mohiyatini yaqqol ochib bergan edi.

Dissertatsiyaning uchunchi bobi **“O‘zbek detektiv nasrida Dostoyevskiy an‘analari” deb nomlangan.** Bobning birinchi faslida “O‘zbek detektiv nasri: adabiy ta’sir, mushtaraklik va o‘ziga xoslik” muammolari o‘rganilgan. O‘zaro aloqadorlik jamiyat rivojining muhim o‘zagi, harakatlantiruvchi mehvari ekanligi insoniyat tarixining qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Bu qonuniyat adabiyot-san’at asarlari, jumladan, badiiy adabiyot namunalari uchun ham tegishli xususiyat sifatida muhimdir. Masalan, rus ijodkorlari Shekspir, Bayron, Volter Skott, Dikens kabi Angliyaning ulkan so‘z san’atkorlaridan shu darajada ijodiy ilhombaxshlik bilan ta’sirlanganlarki, bu allaqanday begona, nomilliy ta’sir bo‘lmay, balki xuddi rus milliy mentaliteti, rus adabiy-ma’naviy manbalaridan bahramandlik kabi tabiiy va ijodiy ta’sir samarasini bergan. O‘z navbatida, akademik A.Bushmin Krilov, Pushkin, Dostoyevskiy, Tolstoy kabi XVIII-XIX asr rus adiblarining adabiy an‘analari, poetik tajribalari, falsafiy yoki psixologik tizimdagi kashfiyotlari o‘zining milliy adabiyoti uchungina emas, balki jahon adabiyotining taraqqiyoti uchun ham adabiy-badiiy kuchga aylanganligini uqtiradi. XIX-XX asrlarda munosib taraqqiyot darajasiga ko‘tarilgan jahon detektiv adabiyoti an‘analari va tajribasi o‘zbek adabiyoti, xususan, nasri uchun ham foydali natijalar bera boshladi. XX asrda dunyo adabiyotiga xos nasr namunalari paydo bo‘lgan o‘zbek adabiyotida yuzaga kelgan ijobiy natijalar tizimida ham adabiy an‘ana va novatorlik hodisasining ahamiyati, harakatlantiruvchi kuchi o‘ziga xos qonuniyat tusini oldi.

XIX asr rus adabiyoti namoyandalari qatorida F.M.Dostoyevskiyning nomi va ijodi, asarlari ham o‘zbek xalqi uchun, umuman, o‘zbekistonlik kitobxonlar uchun yaqindan tanishligini ta’kidlamok kerak. Bu yozuvchining ijod olami o‘zbek so‘z san’atkorlari uchun o‘ziga xos ijod maktabi bo‘lib kelayotganligi ham ilmiy-ijtimoiy haqiqat sanaladi.

Adabiyotshunoslikda jinoyat-jazo motivi ko‘pincha detektiv-kriminal asarlardan qidiriladi va shu uslubdagi yaratmalarga tayaniladi; aslida esa jinoyat-jazo motivining hayotiyiligini F.Dostoyevskiy an‘analarini davom ettirgan O‘lmas Umarbekov, S.Ahmad, Omon Muxtor, Tohir Malik, Abduqayum Yo‘ldoshev, Nazar Eshonqul kabi yozuvchilarning qalamiga mansub asarlari misolida o‘rganish o‘zini oqlaydi.

Uchinchi bobning “O‘zbek detektiv nasrida jinoyat va jazo muammosi hamda syujet sxemasi” deb nomlangan ikkinchi faslida jahon adabiyoti tajribasida ko‘rish mumkin bo‘lgan hodisaga ko‘ra, detektiv-kriminal uslubdagi asarlar tarkibida turfa mavzular, falsafiy-ijtimoiy g‘oyalar tizimida jinoyat va jazo motivi bilan bog‘liq masalalar talqini yetakchilik qiladi. Mantiqan olganda, detektiv-kriminal mavzui bilan bog‘liq asarlardagi eng muhim g‘oyaviy maqsad jinoiy harakatlar, jinoyatchilar faoliyatini va bu jinoyatlar jazosining muqarrarligini talqin qilishdan ham iborat.

Yevropa yoki Amerika qit’asi adabiyotida ham XVII-XVIII asrlarda detektiv-kriminal xarakterdagi asarlar yaratish an‘anasi keng rivojlana boshlagan. Bu boradagi asarlar namunasi O‘zbekistonda XX asrning 30-yillaridan e’tiboran

yuzaga kela boshlagan. Adabiyotshunoslarning qayd qilishicha, Sharif Rizoning “Qor yog‘di, izlar bosildi” nomli kichik qissasi detektiv-sarguzasht, jinoyatlarga qarshi kurash, izquvarlik mavzulariga oid dastlabki asar sanaladi. Bu yo‘nalishda I.Qalandarovning “Shoxidamas, bargida”, O‘.Umarbekovning “Yoz yomg‘iri”, “Fotima-Zuhra”, S.Ahmadning “Sud”, S.Ravshanning “Chordoqdan otilgan o‘q” nomli asarlarini qayd qilib o‘tish mumkin.

Said Ahmad obraz ichki olamini, iztiroblar, pushaymonlik silsilasini talqin etishda psixologizm bobidagi mahorat sohibi ham hisoblanadi. Buni uning “Sud” qissasi misolida kuzatish mumkin. Texnikum o‘quvchisi (Qissada uning nomi aytilmagan) tasodifan skameykada behush bo‘lib yotgan kishini, uning yonida og‘zi ochilib yotgan portfelini ko‘rib qoladi. *“Saratoning jazosi ko‘k choy deganlar. Choynakni ko‘tarib pastga tushdim. Ko‘chaning narigi boshidagi choyxonaga o‘tmoqchi bo‘lib avtobus o‘tib ketishini kutib turibman. Birdan qayrag‘och tagidagi skameykada yonboshlab yotgan bir kishiga ko‘zim tushdi-yu, orqamga qaytdim. Yoshi oltmishlarga borib qolgan bir kishi boshini skameykadan osiltirib yotibdi. Avvaliga uni uxlab qolgan deb gumon qilgan edim”* (S.Ahmad. “Sud”, 138-бет).

Mazkur tasvirlar qissa syujeti, kriminal holat talqinlari boshlanishi – asar tuguni vazifasini o‘taydi. Keyinchalik ma‘lum bo‘ladiki, behush banda bir maktab hisobchi-kassiri ekan. O‘qituvchilarning ta‘til pullarini olib kelayotganida yuragi lohas tortib yiqilgan. Qissa voqeligi, syujet chizig‘i yetakchi qahramon tilidan hikoya qilingan. Bu usul obraz psixologik iztiroblar silsilasini chuqur tasvirlash imkonini bergan.

“Bir soat o‘tdimi, ikki soat o‘tdimi bilmayman. Shuncha vaqt qimirlamay tik turganimni ikki tizzamda darmon qolmaganidan bildim” (139-b).

U qilib qo‘ygan mash‘um ishining dahshatini o‘tgan vaqt ichida bilib qoladi. Hatto peshonasiga shapillatib tushiradi: *“Nima qilib qo‘ydim? O‘g‘ri bo‘lib qoldimmi?”* (139-b).

Qissa qahramonining pushaymonligi talqinida sentimentallik ruhi sezilgandek bo‘ladi. Ammo adib bu jarayonni uning o‘z nomidan ifodalab, birmuncha tabiiylikka erishadi. Texnikum o‘quvchisining o‘z o‘g‘riligidan pushaymonligi Raskolnikovning sudxo‘r kampirni o‘ldirgandan so‘nggi iztiroblariga o‘xshab ketadi.

Insoniy pushaymonlik, gunohlariga iqrorlik, natijada Olloh dargohiga tavbat-tazarrusini qilish jarayonlari – “Sud” qissasi g‘oyaviy-poetik ko‘lamining asosiy falsafiy-huquqiy pafosini belgilaydi.

Uchinchi faslda “Ijodkor falsafiy konsepsiyasi, kriminal qahramon va yechim” masalasi o‘rganilgan. Ma‘lumki, jahon adabiyoti mashhur namunalariga xos fazilat – ularda falsafiy-ijtimoiy g‘oyaviy ko‘lamning ustuvorligi bilan bog‘liq. Chunonchi, sarguzasht, detektiv, kriminal yoki sevgi-muhabbat yo‘nalishidagi badiiy asarlar ham falsafiy konsepsiyasi bilan hayotiylik, haqqoniyat kasb etadi. Dostoyevskiy yoki Tolstoy, Balzak yoki Volter Skott, Mopassan yoki Abdulla Qodiriy qalamiga mansub romanlar, avvalo, ana shu falsafiy mohiyati, ijtimoiy davrga xos teran voqelik mazmuni orqali xalqchillik va ma‘naviy ibrat xarakteriga egaligi bilan ajralib turadi.

F.Dostoyevskiy qotilliklar motivini ko‘p asarlarida qo‘llar ekan, bu jarayon unga jinoyatkor siyosat va nomunosib jamiyat odamni, ayniqsa, sodda, muhtoj, kambag‘al bandalarni jinoyatchi bo‘lib qolishiga bevosita sababchi bo‘lishini falsafiy tafakkur bilan talqin etadi. Adib kriminal qahramonlar faoliyatini o‘ta kutilmagan qiziqarli, taloto‘pli, hatto magik (mo‘jizaviy) realizm rakursida tasvirlar, syujet tizimi yaratar ekan, bu jarayonlarni falsafiy-ijtimoiy g‘oya bilan bezaydi.

O‘zbek nasrida ancha ko‘p detektiv-sarguzasht va kriminal ruhdagi asarlar yaratgan Tohir Malikning bu janrdagi yirik roman-pentalogiyasi “Shaytanat” ham, avvalo, falsafiy pafosining kuchliligi, syujet va kompozitsiya tuzilishidagi qiziqarlilik jihatlari bilan e‘tiborni tortadi. “Shaytanat” – yuksak ijtimoiy-siyosiy mohiyati jihatidan “Jinoyat va jazo”, “Iblislar”, “Qimorboz” va “Aka-uka Karamazovlar”ga yaqin bo‘lsa, kriminal obrazlar, izquvarlik, jinoyatlarni, jinoyatkor to‘dalarni fosh qilishdagi tergov-sud motivlarida, syujet qurilishida Agata Kristi, Artur Konan Doylning detektiv asarlari arxitektonikasini eslatadi. “Shaytanat” sarlavhasidayoq mazkur yirik romanning ma‘no-maqsadi o‘z mujassamini topganligi ma‘lum bo‘ladi. Uyushgan jinoiy guruh rahbari Asadbek – o‘zbek adabiyoti adabiy timsollari safiga qo‘shilgan o‘ziga xos betakror obraz. Yozuvchi Asadbekni jinoyatkorlar sardori darajasiga ko‘targan omil – sho‘ro tuzumi ekanligiga urg‘u bergan. U hali uch-to‘rt yoshli go‘dakligida stalinizm qatag‘oni guvohi bo‘ladi, bolakay ko‘z oldida ikki askarning otasini tutib, qo‘liga kishan solgancha olib ketganliklari manzarasi muhrlanib qolgan.

Shu ma‘noda T.Malikning bu g‘oyaga e‘tibori hali sovet tuzumi davrida yoza boshlagan bu asari naqadar ijtimoiy jasorat namunasi bo‘lganligini bildiradi. Qolaversa, mazkur roman g‘oyaviy pafosi bilan falsafiy salmoq kasb etishi barobarida, Dostoyevskiy ijod manerasi – asli bosh jinoyatchi mavjud tuzumning o‘zi ekanligi bilan g‘oyaviy-ijtimoiy mushtaraklik kasb etishi ma‘lum bo‘ladi.

Dostoyevskiy va T.Malik ijodi mushtarakligiga asos beruvchi ilmiy omillardan biri – ilohiy kitoblardan, Qur‘on va Injil g‘oyalaridan unumli foydalana olish san‘atkorligi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ilohiy g‘oyalar, muqaddas kitoblarda o‘z mujassamini topgan Olloh o‘gitlari, ogohlari, ko‘rsatmalari bu asarlar falsafiy-ma‘naviy pafosining yuksakligini, obrazlar mukammalligini ta‘minlashda ilohiy tayanch bo‘lib xizmat qilgan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Badiiy nasr strukturasi va jinoyat va jazo motivi”** deb nomlangan. Bobning birinchi faslida “Ijtimoiy-psixologik roman arxitektonikasida jinoyat va jazo motivi” masalasi tadqiq qilingan.

Ijtimoiy-psixologik roman arxitektonikasida jinoyat va jazo motivi muhim rol o‘ynaydi. F.Dostoyevskiy jahon adabiyotida ijtimoiy-psixologik romanlari bilan o‘ziga xos adabiy maktab yaratgan adib. Ijtimoiy pafosning yetakchiligi – Chor Rossiyasi, burjua tizimi taqdiriga qora tamg‘a bosgan bechora, “xo‘rlangan” va “haqoratlangan” bandalar hayotining talqini, jinoyatkor yuqori tabaqa, davlat departamenti yetakchilari qiyofasining fosh etilishi bilan xarakterlanadi. “Aka-uka Karamazovlar” (Dostoyevskiy) va “Ulug‘bek xazinasini” (O.Yoqubov) roman (tarixiy roman bo‘lsa-da)larida padarkushlik jinoyati talqini adabiy mushtaraklik namunasi kabi shakliy va g‘oyaviy parallellik kasb etadi. Yozuvchi bu kutilmagan

badiiy detallar tasviri orqali Fyodorning negativ-axloqsiz va shalaq xarakter-tiynatini yanada batafsil talqin qilishni ko'zlagan. Shu bilan birga, adib samoderjaviya tutqunligi muhitidagi ma'naviyatsizlik, foydaparastlik avj olib borayotgan muhitda ayol-qizlar haq-huquqini himoya qilish maqsadi bilan ham ish tutgan.

Dostoyevskiy asarlarida, jumladan, asosan, "Aka-uka Karamazovlar" romanida insonni halokatga, qolaversa, aniq bir shaxsni (masalan, "Jinoyat va jazo"dagi sudxo'r kampirni, "Aka-uka Karamazovlar"dagi Fyodor Karamazovni) o'limiga olib kelgan omillarni keng miqyosli hayotiy tavsiflar yordamida talqin etganligiga guvoh bo'lamiz. Bu quyidagilarda ko'rinadi:

ijtimoiy muhitning nosozligi;

odamning yetuk shaxs sifatida shakllanishiga imkon bermaydigan noinsoniy siyosiy-ijtimoiy qonunlar;

manfaatparastlik, qanday qilib bo'lsa-da, boyib ketish jazavasi sudxo'r kampirning ko'r-ko'rona ravishda boylik to'plash uchun, Fyodor Karamazovning tuturuqsizligi, barcha narsadan, barcha harakatdan faqat sarmoya to'plash uchun telbalanishi);

Fyodor Karamazovning oilasi, ayniqsa, Dmitriy, Ivan, Aleksey kabi o'g'illarining tarbiyasi, yashashi, orzu-umidlarining amali bilan mutlaqo ishi bo'lmaganligi, o'ta darajada bemehrligi va xudparastligi uning o'zini ham ma'naviy jihatdan, ham tanasi jihatdan chinakam halokatga olib keladi, asli noqonuniy o'g'li Smerdyakov tomonidan o'ldirilgan ota qotili sifatida Dmitriy va Ivan o'g'illari sudga tortiladi;

yozuvchi Fyodor Karamazov o'g'illari ruhiy olami va azob-uqubat bilan ulg'ayish yo'llarini ijtimoiy-ruhiy yo'nalishda ancha batafsil talqin etadi.

To'rtinchi bobning "Qissa, hikoya janrida badiiy g'oya va kriminal motiv" deb nomlangan ikkinchi faslida F. Dostoyevskiyning milliy nasrimizga ta'siri faqat katta epik asarlardagina emas, o'rta va kichik janrlarda ham seziladi. Aytish mumkinki, katta, o'rta va kichik avlod vakillarining ko'plari Fyodor Dostoyevskiy maktabidan bahra olgan, ta'sirlangan, ulug' yozuvchiga ergashib badiiy g'oya va kriminal motivlar yaratishda yozuvchi an'alarini davom ettirganlar. Adabiyotshunos olim U.Normatov bu fikrlarga munosabat bildirib, o'zbek nasrida detektiv izlari 30-yillardayoq ko'ringanligini qayd qiladi. A.Qodiriyning "Shubha", Sh.Rizoning "Qor yog'di, izlar bosildi" hikoya va qissalari bu boradagi ilk izlanishlar mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. Ammo Tohir Shermuhammad o'zbek detektiv nasri ibtidosi I.Qalandarovning "Shoxidamas, bargida" qissasi bilan bog'liq ekanligini aytadi.

Umuman, o'zbek realistik detektiv nasri ibtidosi xususidagi bu qarashlarning barchasi qimmatlidir, ammo bu mulohazalar mantiqiy va adabiy jarayon kuzatuvi yakdil xulosaga kelish zaruratini paydo qiladiki, bunga adabiyotshunos olimlarning bu boradagi fikrlarini umumlashtirish orqali erishiladi. Yuqorida nomi aytib o'tilgan asarlar sof detektiv asarlarni dunyoga kelishida turtki bo'lmagan bo'lsa-da, bu ikki adib hikoya va qissasida ko'rinadigan detektiv uchqunlari haqida ta'kidlab o'tish zarurdir. Mazkur hikoya va qissadagi detektiv unsurlarni jahon, xususan, rus adabiyotidan ta'sirlanish belgilari sifatida baholash o'rinlidir.

Ushbu faslda Sadridin Ayniynig “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi, Edgar Allan Poning birinchi sof detektiv hikoyasi “Morg ko‘chasidagi qotillik”, “Qizil ajal”, Rustam Jabborovning “Izquvarning “gunohi” hikoyalari qiyosan tahlilga tortilgan.

To‘rtinchi bobning “Milliy nasrda tashqi va ichki jazo muammosi” deb nomlangan uchinchi faslida jazo falsafiy-ijtimoiy, ma’naviy-huquqiy mohiyatga ega chora-tadbir bo‘lib, jazolash, jazoning ko‘rinishlari turfa shakllarda namoyon bo‘lishi, bu jazo shakllarining badiiy asarlarda talqini masalasi o‘rganilgan.

Tashqi jazosi sud-huquq tizimi tomonidan belgilanadi: qotillik, zinokorlik, o‘g‘rilik, ekstremistik, Vatanga xoinlik, davlat va xalq molini talon-tarojlik kabi jinoiy faoliyatga tasdiqlangan jinoyat kodeksi moddalari asosida qamoq, surgun, uy qamog‘i, hatto o‘lim, jarima kabi jazo turlarini qo‘llashi mumkin.

Ichki jazoda huquqiy-rasmiy jazolar emas, avvalo, ilohiy jazo, xalq tili bilan aytganda, qilmish - qidirmish, hamma jazolardan ham eng og‘iri – vijdon azobi, eng muhimi, jinoiy harakatidan ichki pushaymonlik, ichki iztirobli o‘ylar, qiynalishlar jarayoni bilan bog‘liq o‘z-o‘zini sud qilish, o‘z-o‘zini jazolash shakli tushuniladi. Adabiyotshunos I.G‘aniyevning iborasi bilan aytganda, “Vijdon azobi– surgun jazosidan ham og‘irroqdir”.

Dostoyevskiyning jinoyat-jazo mavzusi yetakchi o‘ringa ega, “Jinoyat va jazo”, “Iblislar”, “Qimorboz”, “O‘lik uydan maktublar”, “Xo‘rlanganlar va haqoratlanganlar”, “Aka-uka Karamazovlar” singari romanlarida jazoning ham tashqi, ham ichki turlari aralash yaxlitlikda qo‘llanganligini kuzatish mumkin. Asli hayotiy asar mohiyati shunday bo‘lishi mumkin. Jinoyatni qilgan shaxsning jazo olishi qonuniy (tashqi jazo), ko‘p hollarda esa, qilib qo‘ygan jinoyatidan yurak-yuragi bilan pushaymonlik tuyg‘usini kechinishi ham tabiiy (ichki jazo).”

Ichki jazo – qilmishidan, qotilligidan, padarkushligidan beixtiyor adadsiz pushaymonlik chekish talqinida “Ulug‘bek xazinası” romanida Abdullatif timsoli yorqin misol sanaladi. Romanda padarkush Abdullatifning o‘z qotilliklari, yovuzliklari, ilm-ma’rifatga nafrati, ulug‘ mutafakkirlarning kitoblarini yondirishi kabi adog‘iga yetish mushkul bo‘lgan mal’un jinoyatlariga nihoyat zo‘raki hukmdorligiga olti oylar chamasi oralig‘ida eng katta jazo – fojiali o‘limga mahkum etilishi barobarida, bu davr mobaynida ichki jazo turlariga ham giriftor bo‘lgandi. Yozuvchi buni bu nobakorning xayol-ruhiyasiga oid iztiroblar, behol xatti-harakatlar timsolida mikrosubjetlar, badiiy detallar ko‘magida talqin etgan.

Masalan:

iblis dunyosida bosh ko‘tarayotgan, balki ixtiyorsiz pushaymonliklar og‘ushida doimiy munlig‘ holatga giriftor bo‘ladi;

ba‘zan gapiradigan gapidan, qiladigan harakatlaridan chalg‘ib qoladigan devonafe‘llik kasb etadi;

saroyning tayanch kuchlari, jumladan, ezguqalb Shayxulislom Burxoniddin, shahar dorug‘osi Mironshoh, hatto nomini eshitsa munofiq shahzodaning o‘zi ham dag‘-dag‘ titraydigan jasoratli va mard navkar Bobo Husayn Bahodir, barcha qoraliklarini bajaradigan Amir Sulton Jondor kabi o‘nlab-yuzlab kishilar allaqachon undan sovushayotganliklarini sezib, cheksiz xavotirga tushib yashashi; ertalabgacha may ichib, munligi musiqalarni tinglashga berilishi;

*iymonli va nufuzli kishilarning nigohida “barcha saroy ahli osoyishni yo‘qotgan, hamma bir-biridan qo‘rqar, bir-biriga ayg‘oqchilik qiladi, zotan, saroyda farog‘at qolmagan edi”.*²⁶

nihoyat, zindonga tashlangan Ali Qushchini bo‘shatib, saroyga chaqirtirgan, undan sun‘iy kechirim so‘rashi, shu mal‘unlik bilan u zotni o‘ziga hamkor qilish niyatini ko‘zlaganligi...

Bu holatlar ichki jazo turining turfa ko‘rinishlari kabi e‘tiborni tortadi. Eng katta va munosib jazo esa – padarini qatl etgan Said Abboslar qilichidan o‘zining ham boshidan judo bo‘lishi hisoblanadi.

Padarining qotili – birinchidan, ulkan ma‘naviyat arbobi, adolatli hukmdor bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek atrofidagi ezgu kuchlarning ustoz o‘chini olish, dushmanlarni jazolash maqsadida bel bog‘lab o‘rtaga chiqqanlari bo‘lsa, ikkinchidan, qanchalik yovuz, toj-taxt oshig‘i, munofiq ruhoniylar takabburligi psixologik uslub yordamida ancha mukammal talqin qilingan.

“Aka-uka Karamazovlar” – adib yaratgan besh romanning so‘nggisi bo‘lib, boshqa romanlar g‘oyasi va mavzusiga ko‘ra, fojialar, jinoyatlar va ular uchun belgilangan jazolar ko‘lamini o‘zida aks ettiradi.

“Aka-uka Karamazovlar” romaniga adabiyotshunoslar adibning hayotda bir qator farzandlar tomonidan o‘ldirilgan otalar qismatiga oid voqealar asos bo‘lib xizmat qilganligini ta‘kidlashgan. Masalan, u Omsk qamoqxonasida otasini o‘ldirganlikda ayblanib, yigirma yilga og‘ir katorga jazosiga mahkum etilgan sobiq harbiy-yurist Ilinskiy taqdiri misolida shunday sun‘iy ayblovga guvoh bo‘ladi. Dostoyevskiy “O‘lik uydan maktublar” romanida ham shu og‘ir tuhmatga qolgan Ilinskiy taqdiri haqida ikki marta eslab o‘tgan ekan. N.Vilmont “O‘lik uydan maktublar”, “Aka-uka Karamazovlar” romanlarida qalamga olingan padarkushlik motivi Tomas Mann, Fridrix Shiller asarlaridagi shunday og‘ir jinoiy voqelik bilan mushtaraklik mavjudligini ta‘kidlagan va ularni qiyosiy tahlil qilgan.²⁷

S.I.Gessen yozgan edi: “Aka-uka Karamazovlar” romani mag‘zida turgan otaning o‘limi bilan bog‘liq mojaroli voqelik “Ilohiy komediya” (Dante), “Faust” (Gyote) kabi yirik asarlar bilan g‘oyaviy-badiiy mushtaraklikka ega bo‘lib, yozuvchi uch o‘g‘ildan qay biri qatil ekanligi masalasi talqinida o‘zining muhim ijtimoiy-axloqiy qarashlarini olg‘a suradi. O‘zlari otasini asli o‘ldirmagan o‘g‘illar (Dmitriy, Ivan, Aleksey) obrazi talqini orqali ezgulik, rostgo‘ylik, oqibat, xudojo‘ylik kabi ma‘naviy fazilatlarini ulug‘laydi, ularni ayblagan va hukm qilgan sud departamentining adolatsizligini fosh qiladi.”²⁸

“Aka-uka Karamazovlar” romanining yakuniy kitobida ma‘naviy adolat faqat Dmitriy Karamazovning yondashuvlari misolida ochiq namoyon bo‘ladi. U advokatning “*qotil, ammo aybdor emas*” degan xulosasiga qarshi borib, “*qotil emas, ammo aybdor*”²⁹ degan qarama-qarshi fikrni qattiq turib himoya qiladi.

²⁶. Ёқубов О. Улуғбек хазинаси. Танланган асарлар. Учинчи том. –Тошкент: АСН, 1978.- 259-бет.

²⁷. Қаранг: Вильмонт Н. Достоевский и Шиллер. –Москва: Советский писатель, 1984. стр.191-196.

²⁸. Гессен С.Н. Трагедия добра в “Братья Карамазовых» Достоевского. – О Достоевском. Сборник статей. – Москва: Книга, 1990. стр.353.

²⁹. Dostoyevskiy F.M. “Aka-uka Karamazovlar”. Roman. II jild. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. 192-bet.

Dmitriyning bu taxlit o‘z-o‘zini sud qilishi huquqning ustuvorligini ma’nan emas, balki F. Dostoyevskiy tushunchasidagi haqiqatning ustuvorligini – rus xalqining diniy o‘zgarishlariga bo‘lgan kuchli ishtiyoqini va xuddi shu ishtiyoq millatni najot yo‘liga boshlashini tasdiqlab beradi. Darhaqiqat, Dostoyevskiy ma’naviy olamining bir qator ijobiy jihatlari o‘z aksi va talqinini topgan.

Dostoyevskiyning jahon nasridagi yutuqlari va kashfiyotlari obrazlar ma’naviy olamini, “qalb dialektikasi”ni chuqur psixologik talqinlar bilan tasvirlashdan iborat ekanligi ma’lum. Bu fazilat ichki jazo – ruhiy olamdagi iztiroblar, pushaymonlar jarayonini talqin va tadqiq etishda qo‘l keladigan usuldir. “Jinoyat va jazo” romanida Rodion, “Aka-uka Karamazovlar” romanidagi Dmitriy, Ivan, Alyosha, “Ulug‘bek xazinasi” romanidagi Ulug‘bek, Abdullatif, “Sud” qissasidagi (Said Ahmad) talaba-“o‘g‘ri”, “Afsonaviy ko‘zgu siri” qissasidagi (D.Sultonov) Erik Bredli timsollari, shu jazo-pushaymonlik turining namunalari sanaladi. “Samosud” (o‘z-o‘zini sud) talqini tavba-tazarru kabi ilohiy g‘oyaga oid masala sifatida ham muhim. Balzak, Mopassan, Shekspir, Stefan Sveyg, Prosper Merime, Yasupari Kovabati, Jek London, Oskar Uayld, Stendal, Drayzer, J.Joys, Markes, Qodiriy, Aytmatov kabi so‘z san’atkorlari nomiga, mumtoz asarlariga shuhrat bag‘ishlagan bosh omillardan biri ham shu ichki jazo bobidagi psixologik san’atkorliklari bilan bog‘liqdir.

XULOSA

1. Jinoyat va jazo – badiiy adabiyotning mavzusi, muammosi, motivi (talqin-tavsif) sifatida eng dolzarb, ayni vaqtda murakkab va qiyin masalalardan biri. F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy kabi yozuvchilar asarlarida bu masalalarning mukammal tarzidagi talqin-tahlillari yaratilgan.

2. Jinoyat va jazo motividagi asarlarda qotillik, o‘g‘rilik, talon-tarojlik, bosqinchilik, xiyonatkorlik kabi hodisa turlarini shunchaki hayotda sodir bo‘lgan favqulodda hodisa tavsifi sifatida tasvirlansa, bu bir tomonlamalik, quruq bayon maqomiga ega bo‘lib qolishi tayin. Bu g‘oyat nozik va qaltis mavzuni falsafiy, huquqiy va diniy muammo sifatida talqin va tahlil qilina olinsagina o‘z maqsad-muddaosiga yetgan hisoblanadi.

3. Jinoyat va jazo mavzusi – bevosita va bilvosita jahon adabiyoti namunalarining muhim motivlaridan biri. Dostoyevskiy kabi insonparvar va kambag‘alparvar yozuvchi, hatto dunyo ahlini qiziqtiradigan va intiltiradigan sevgi-muhabbat mavzusini cheklab, asosan jinoiy harakatlar va ularning jazosi masalasini yirik romanlarning yetakchi motiviga aylantirgan.

4. Kriminal syujetli asarlar, odatda, turli jinoiy harakatlar va bu jinoyatlarni aniqlash jarayoni bilan bog‘liq asarlar qabilida tushuniladi. F.Dostoyevskiy asarlarida kriminal hodisalar ijtimoiy hayot, mahalliy kolorit, siyosiy karyera bag‘rida talqin etiladi. Jorj Simpson (“Mojatin mehmonxonasidagi qotillik” romani), Gabriel Garsia Markes (“Oshkora qotillik qissasi”), Edgar Allan Po (“Morg ko‘chasidagi qotillik” hikoyasi), Davron Sultonov (“Afsonaviy ko‘zgu siri” qissasi) ayrim asarlari boshdan-oxir kriminal talqinga bag‘ishlangan.

5. F.M. Dostoyevskiy jahon adabiyoti kontekstida jinoyat va jazo muammosini eng ko'p talqin etgan yozuvchi sifatida nom taratgan. Adibning "Jinoyat va jazo", "Aka-uka Karamazovlar", "Qimorboz", "O'lik uydan maktublar", "Iblislar" nomli romanlarida qo'yilgan masala, avvalo, jinoyat va jazo motivining yetakchiligi bilan izohlanadi. Bu g'oya maishiy hayot, ijtimoiy turmush, siyosat va ma'naviyat bilan uyg'unlashib ketadi.

6. F.M.Dostoyevskiy asarlarining yuzaga kelishida adib hayotining o'ta chigal, fojiona tarixi bevosita asos va manba bo'lib xizmat qilgan. Petroshevskiy degan erkparvar arbobning erkin ijtimoiy fikrlar, falsafiy munozaralar olib borilgan yashirin to'garagidagi faol ishtiroki tufayli Dostoyevskiy ham davlat tuzumini ag'darib tashlashga uringan shaxs sifatida uzoq muddatli katorga jazosiga hukm etiladi. Mana shu - qariyb o'n yillik azobli davr adib asarlarida talqin etilgan jinoyat va jazo motivlari uchun xamirturush vazifasini o'tagan. Bu asarlarning hayotiyliigi va ijtimoiy haqqoniyliigi, avvalo, shu bilan ham o'lchanadi.

7. F.Dostoyevskiy o'z romanlari, qissalari, hikoyalari, kundalıkları tarkibidagi jinoyat va jazo motivi bilan yondosh holda davlat ish tizimining yaroqsizliigi, mavjud yetakchi rahbarlarning adolatsizliigi, sud-huquq sohasidagi qora manfaat, pora illati bilan bulg'angan, xalqning asosiy qismi qashshoqligi, jinoyatlar mag'zida yetar-yetishmovchilik fojiasi turishi kabi g'oyat dolzarb ijtimoiy muammolar talqini turadi.

8. So'z san'atkorlari orasida Dostoyevskiy ma'naviy-axloqiy masalalar talqiniga izchil amal qilganligi bilan ham e'tiborni tortadi. Uning asarlarida iymon, e'tiqod, diyonat, ezgulik, yaxshilik, rahm-shafqat, sabr, hamnafaslik kabi axloqiy fazilat donishmandona rakursda ulug'lanadi.

9. "Aka-uka Karamazovlar" romanidagi Dmitriy, Ivan va Aleksey otalarini benikoh farzandi Smerdyakov o'ldirgan bo'lsa-da, o'zlarini beixtiyor padar qotili sifatida tergovchi oldida dalolat qiladilar. Chunki bu insofli va ezguqalb farzandlar otalari Fyodor Ivanovichni badfe'lidan, yovuzona qilg'iliklaridan, suyuqligi va nafs o'vorligidan qaytara olmaganliklari uchungina o'zlarini aybdor sanab, sun'iy ravishda o'zlarini qotil deb biladilar.

10. Har bir rivojlangan adabiyot singari o'zbek adabiyoti ham jahon ilg'or adabiyoti an'analari, mumtoz g'oyaviy-poetik ta'sir asosida shakllangan va rivojlanayotgan adabiyot sanaladi. Asli Sharq adabiyoti, lirik va liro-epik asarlar bag'rida kamolga yetgan o'zbek adabiyotida realistik nasr, dramaturgiya turlaridagi asarlarning paydo bo'lishida Yevropa, Rossiya, AQSh, Lotin Amerikasi, Yaponiya, Xitoy adabiyoti namunalarining ahamiyati ancha salmoqlidir. Bu boradagi adabiy aloqadorlik tizimida – jinoyat va jazo motivi yetakchi bo'lgan adabiy manbalar roli alohida e'tiborlidir.

11. O'zbek detektiv nasrining shakllanish omillari va manbalari asli milliy folklor namunalari, jumladan, "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi dostonlardan, yozma adabiyotdagi ilk detektiv asarlar ham ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, mavjud an'analarning tadrijiy takomili mahsuli sifatida A.Navoiy "Xamsa"si va nasriy asarlaridan boshlanishini qayd qilmoq kerak.

12. F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy, Artur Konan Doyle, Edgar Allan Po, Agata Kristi kabi detektiv-kriminal yo'nalishdagi yozuvchilarning an'analari, adabiy

tajribalari o‘zbek detektiv adabiyoti uchun tayanch vositalardan sanaladi. Bunda F.Dostoyevskiyning mukammal adabiy yodgorliklarining o‘rni va ahamiyati ayricha ekanligini qayd qilish lozim. Chunonchi, Dostoyevskiy adabiy merosining shoh namunalari – “Jinoyat va jazo”, “Telba”, “Qimorboz”, “O‘lik uydan maktublar”, “Iblislar”, “Aka-uka Karamazovlar” kabi romanlari Ibrohim G‘afurov, Olim Otaxonov kabi mohir tarjimonlar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Bu asarlar kitobxonlar uchun ma’naviy ehtiyoj namunasi bo‘lsa, yozuvchilar uchun ma’naviy-ma’rifiy saboq va ijod maktabi vazifasini o‘tadi.

13. Tohir Malikning “Shaytanat” nomli roman-pentalogiyasi o‘zbek adabiyotidagi detektiv-kriminal ijod namunasi sifatida Dostoyevskiyning shu boradagi ijodiy tajribalariga mushtaraklik kasb etuvchi keng qamrovli asar. Umumiy yo‘riqda qaraganda, “Shaytanat”ning adabiy manbalari, ijodiy-an’anaviy qamrovi ancha keng: Qur’oniy ta’limot, o‘zbek mumtoz adabiyoti, milliy dostonchilik tajribalari, badiiy psixologik tadqiqot qirralari, xalq dostonlari shakli va mazmuni, milliy ma’naviyat jozibasini. T.Malik bu adabiy-estetik fazilatlarni egallashda Dostoyevskiy ijod dahosiga, badiiy mahorat qirralariga novatorona munosabatda bo‘lganligi ham sezilarlidir.

14. Diniy-ilohiy ma’rifat targ‘ibi va himoyasi bilan aloqadorlik masalasida Dostoyevskiy adabiy tajribalarining ahamiyati ham o‘ziga xosdir. Dostoyevskiy o‘z davrida jinoyatlarning ko‘payishi, munofiqlik, zo‘ravonlik, ma’naviyatsizlik kabi illatlarning urchib ketishi, qashshoqlik ofati, albatta, ateistik – Xudosizlik ruhining avj olishi bilan bog‘liq, deya targ‘ib qiladi. Tohir Malik barcha yovuzliklar, mansab-martaba uchun kazzoblik to‘nini kiygan munofiqlarni Azozil do‘konidan mol olgan gumrohlar va xudobezorlar sifatida talqin qilgan.

15. Psixologik tahlil va talqin detali, Dostoyevskiyning bu boradagi adabiy tajribalari jinoyatkor shaxslar, jabrdiydalar, ezilganlar, xo‘rlanganlar va haqoratlanganlar ruhiy olamini chizishda, ularning dardlari va umidlar dunyosini ko‘rsatib berishda qo‘l keladi. Shu ma’noda, uning deyarli barcha adabiy qahramonlari uzluksiz iztiroblar, qiynoqlar, kasallik va tushkunliklar ichra tasvirlanadi. Bunda yozuvchining psixologik mahorat egasi ekanligi namoyon bo‘lgan.

16. Jinoyatning tashqi va ichki jazo bilan belgilanishidek, murakkab muammolarni badiiy-falsafiy, ijtimoiy muammolar bilan qorishiq tasvirlashda Dostoyevskiy asarlari mukammal san’at namunasi. Akbar Mirzoning “Ajaj bilan yuzma-yuz” romanida asar g‘oyaviy-siyosiy, falsafiy-axloqiy mohiyatini belgilashda bunday jazo va ayblov turlari hayot mantiqiga mos ravishda o‘zining ichki badiiy tavsifini topgan. Bu o‘rinda “Ajaj bilan yuzma-yuz” romanining mustaqil O‘zbekiston istiqlolini asrashda ekstremistik qora kuchlarga qarshi kurash motivi jinoyat va jazo tizimidagi o‘zbek nasrida yuzaga kelgan dastlabki o‘ziga xos siyosiy detektiv asar timsoli ekanligi bilan e’tiborni jalb qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАЛИЛОВА ДИЛБАР ЖАЛИЛОВНА

**ПРОБЛЕМА ПРЕСТУПЛЕНИЯ И НАКАЗАНИЯ В
ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ:
СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ
(НА ПРИМЕРЕ ФЁДОРА ДОСТОЕВСКОГО И УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЫ)**

10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сравнительное языкознание и переводоведение

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание учёной степени доктора
ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Бухара – 2023

Тема докторской диссертации зарегистрирована под номером №B2022.2.DSc/Fil437 в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан.

Докторская диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, английском, русском (резюме)) размещён на веб-странице Научного Совета (www.buxdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант: Ганиев Илхом Музаффарович
доктор филологических наук

Официальные оппоненты: Муминов Файзулла Абдуллаевич
доктор филологических наук, профессор

Киселев Дмитрий Анатольевич
доктор филологических наук, профессор

Мурадов Гайрат Некивич
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация: Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится « 06 » января 2024 года в 09⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200118, город Бухара, улица М.Икбол, 11. Тел.: +99865221-29-14; факс: +99865221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрировано за № 2.403). (Адрес: 200118, город Бухара, улица М.Икбол, 11. Тел.: +99865221-25-87.)

Автореферат диссертации разослан « 22 » декабря 2023 года.
протокол рассылки за № 23-37 от « 22 » декабря 2023 года).



Д.С.Ураева

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

З.И.Расулов

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, доцент

Ф.М.Хажиева

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук [DSc])

Актуальность и востребованность темы. В мировой литературе система проблем осмысления человека и общества включает ряд мировоззренческих мотивов, таких как любовь, семейно-бытовые, дружба и братство, героизм и патриотизм, природа и экология, а также мотивы преступления и наказания. В психологии любого человека в сложных и запутанных жизненных ситуациях возникает склонность к совершению того или иного вида преступления, крупного или мелкого, даже на несколько мгновений. Естественно, психология человека меняется в результате повседневной деятельности. Такими событиями являются идейные мотивы, содержащиеся в былинах, лиро-эпических эпосах, прозаических, поэтических или драматических произведениях.

Среди образцов мировой литературы произведения на тему преступления и наказания привлекают внимание наличием интересных, необычайно загадочных и даже волшебных, реалистических примеров. Формы проявления мотива преступления и наказания всегда интерпретировались на примерах узбекского фольклора, поэзии, прозы и драматургии. Но на основе сравнительно-типологического исследования вопросов, связанных с темой преступления и наказания в узбекской литературе, пристального изучения трактовок мотива преступления и наказания с творчеством русского писателя Ф.М. Достоевского и определяется актуальность данной диссертации. Еще одним важным аспектом исследования является то, что хотя в узбекской прозе создан ряд произведений, в которых отражены разные формы преступлений, они специально не исследовались и выделялись как особая внутренняя глава или часть общего идейно-художественного анализа в исследовательских работах, а само преступление и наказание не изучалось в качестве научного компонента.

Эти исследования проводятся для обеспечения мира и благополучия в нашей стране и на пути реформ, в частности, в такой широкомасштабной сфере, как изучение любых преступных действий, их разоблачение, построение нового демократического общества и служат его духовной основой и опорой.

Как сказал Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев в своем выступлении «Литература и искусство, развитие культуры – прочная основа для повышения духовного мира нашего народа» (3 августа 2017 г.), «Литература показывает сердце народа, духовность народа. Каждый творец, находящийся в центре внимания миллионов людей, вступивший на священное поприще культуры, литературы и искусства, без сомнения, в первую очередь прислушивается к сердцу своего народа и стремится быть средством от его боли»¹. Также «Литература показывает сердце народа, духовность народа. В нынешние сложные времена людям необходимо

¹. Ш.М.Мирзиёев. «Развитие литературы, искусства и культуры является прочной основой поднятия духовного мира нашего народа». Уз АС, 4 августа 2017 г.

использовать впечатляющую силу литературы, чтобы зарабатывать деньги и вдохновлять их на благородные цели. Мы создадим все условия для изучения наследия наших предков и великой литературы, достойной нашей великой культуры"², - сказал наш уважаемый президент Ш.М.Мирзиёев. В дни, когда в Республике Узбекистан закладывается основа Третьего Ренессанса, значение и влияние художественной литературы в нравственном совершенствовании и гармоничном воспитании молодого поколения чрезвычайно важны.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года" от 8 октября 2019 года, в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации и финансированию научно-исследовательских работ» от 17 февраля 2017 года, № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» от 19 мая 2021 года, в Постановление Кабинета Министров № 376 «О мерах по совершенствованию системы издания и перевода лучших образцов мировой литературы на узбекский язык, а шедевры узбекской литературы на иностранные языки» от 18 мая 2018 года а также других нормативно-правовых документах и правовых актах, связанных с этой деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социально-правовом, экономическом, культурно-духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.

Научные исследования по изучению поэтической концепции художника в мировой литературе, в том числе мотива преступления и наказания в узбекской литературе проводятся в ведущих центрах и высших учебных заведениях мира, в том числе в Колумбийском университете в городе Нью-Йорке (США), Оксфордском университете (Великобритания), Кембриджском университете (США), Пенсильванском университете (США), Калифорнийском университете (США), Университете Торонто (Канада), Университете Грейсфилд, Университете Трира (Германия), Веронском университете (Италия), Австралийском университете (Аргентина), Кораденизском техническом университете (КТУ) (Турция), Московском государственном университете (Россия), Алтайском государственном

² Выступление Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева на открытии «Аллеи писателей» 20 мая 2020 года.

университете (Россия), Чувашском государственном университете (Россия), Институте востоковедения Российской Академии Наук (Россия), Дагестанском государственном педагогическом университете (Дагестан), Казанском (Приволжском) федеральном университете (Россия), Санкт-Петербургском государственном институте Востоковедения (Россия), Башкирском государственном университете (Россия), Тамбовском государственном университете (Россия), Ходжентском государственном университете (Таджикистан).

Степень изученности проблемы. Русское литературоведение, составляющее значительную часть передового мирового литературоведения и литературной критики, привлекает внимание тем, что достигнуты большие успехи в изучении художественных произведений в наиболее характерных и глубоких научных аспектах. Например, мы видим это в работах в попытках исследования на тему преступления и наказания, имеющих интересный и сложный мотив. Достаточно исследовано и творчество Федора Достоевского, известный как мастер изображения судеб бедных и беспомощных людей, судеб людей, трагически закончившихся из-за произвола и преступлений жестоких людей в мировой литературе³.

Вопросы творчества Достоевского широко изучались в диссертационных исследованиях российских ученых⁴.

Мотив преступления и наказания, нашедший свою трактовку в узбекской литературе, в том числе и в прозаических произведениях, до сих пор отдельно не изучался ни в одном исследовании, даже ни в одной научной статье. В то же время следует отметить, что трактовки мотива преступления и наказания в известных произведениях поэтапно изучались в посвященных этим произведениям трудах - учебниках, монографиях, диссертациях. Например, преступление нашествия и его наказание в сказаниях о Тумарисе

³. Смотрите: Шевцова Д.М. Функционирование библейский эпитафий в художественной структуре романов Л.Н.Толстого ("Анна Каренина", "Воскресение") и Ф.М. Достоевского ("Братья Карамазовы"). АКД. Нижний Новгород, 1997, -19 с.; Прокурова Н.С. Нравственно-психологические аспекты проблемы преступления и наказания в русской литературе второй половины XIX в. АДД, Москва, 2000, -60 с.; Жаров В.А. Ф.М.Достоевский и философия права 1860-х годов. Дисс., Тверь, 2003, -194 с.; Савина Н.О. Роман Ф.М.Достоевского "Бесы": проблематика и особенности поэтики. Дисс., Москва, 2003, -219.; Дорошева Е.В. Достоевский и русский суд как основа национально-правовой этики: феноменология образов. АКД. Краснодар-2005; Федоренко С.С. Роман Ф.М.Достоевского "Преступление и наказание": аспекты художественной онтологии. Дисс., Самара, 2006, -171 с.; Сафронова Е.Ю. Дискурс права в творчестве Ф.М. Достоевского 1846-1862 гг. АКД, Москва, 2006, -26 с.; Сафонова С.Ю. Мотив преступления как основа сюжетной интриги в романе Ф.М.Достоевского "Преступление и наказание" и романе Диккенса "Тайна Эдвина Дрида". Дисс., Москва, 2014, -194 с.

⁴. Например, смотрите: Осмоловский О.Н. Достоевский и русский психологический роман XIX в. Дисс., Орел, 1999, -410 с.; Сапельников А.В. Феноменология изображения рационального и эмоционального в романе Ф.М.Достоевского "Идиот". АКД, Волгоград, 2004, -20 с.; Савенкова Е.С. Система второстепенных персонажей романа Ф.М.Достоевского. "Идиот" в контексте литературной традиции. АКД, Нижний Новгород, 2006, -22 с.; Сальникова О.М. Роман Ф.М.Достоевского "Идиот": проблема веры и неверия в морально-нравственных позициях героев. АКД, Москва, 2006, -28 с.; Сморгжо С.Н. Художественная эсхатология в романах Ф.М.Достоевского 1860-1870-х годов. АКД, Краснодар, 2007, -26 с.; Кузнецова Е.В. Художественная аксиология в романе Ф.М.Достоевского «Идиот». АКД, Магнитогорск, 2009, -24 с.; Голова С.В. Проблемы культуры, цивилизации и язычества в художественном мире литературе Ф.М.Достоевского. Дисс., Москва, 1999, -199 с.

